



Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2025, № 3

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina boshlangan.

O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvarda № 0101-tartib raqami bilan qayta po'xyatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan maqolalardan iqtibos keltirilganda «Uzluksiz ta'lim» jurnalidan olinganligi ko'rsatilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Abdug'appor QIRQIZBOYEV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Xolboy IBRAGIMOV
Laylo AXMEDOVA
Roxatoy SAFAROVA
Leyla DJURAYEVA
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA
Dusmurod DJURAYEV
Baxodir AKBAROV
Komiljon KARIMOV
Komiljon GULYAMOV
Zulfizar KARIMOVA

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Ziyo ko'chasi,
5-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **R.G.Safarova**
Alisher Navoiyning uzluksiz tarbiya va uning turlariga oid pedagogik ta'limotlari
- 8 **X.M.Tojiboyeva**
Uzluksiz ta'lim tashkilotlarida milliy kontentlar yordamida gender tarbiya masalasi
- 12 **R.B.Yarmatov**
Uzluksiz ta'lim tizimida hissiy intellektni rivojlantirish metodlari
- 18 **Z.Palibayeva**
Jismoniy tarbiyani o'qitishda uzluksiz pedagogik amaliyotga tizimli yondashuv masalalari
- 23 **N.R.Masharipova**
O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllatirishda tarbiyaga oid milliy yondashuvlarning ahamiyati
- 28 **Z.A.Xolmatova**
Talabalarining o'quv faoliyatini rivojlantirishda innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati
- 32 **Sh.O.Aripov**
Gender yondashuv asosida yoshlarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari
- 38 **M.I.Xudayberdiyev**
Uzluksiz ta'lim tizimida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kompozitsion badiiy-estetik didini tarbiyalashda raqamli texnologiyalarining o'rni
- 43 **G.I.Sapayeva**
Kimyo ta'limining mazmuni ug'unlashtirish muammolari
- 47 **I.X.Turdiboyev**
Fanlararo integratsiyaning kimyo fanini o'qitishdagi o'ziga xos ahamiyati
- 52 **M.F.Yakubova**
Umumt'alim maktablarida fanlar integratsiyasidan foydalanib kimyo ta'lim uzviyligini ta'minlash
- 57 **P.X.Джусупов, К.А.Каримов**
Педагогическое проектирование – альтернатива оценивание знаний студентов в педагогическом вузе
- 63 **H.B.Най**
Основные тенденции развития компетенций руководителей системы дошкольного и школьного образования Республики Узбекистан

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIM: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

- 68 **B.M.Хакимова**
Методика SEL и новые тенденции обучения в Узбекистане

MA'NAVIY TARBIYA

- 73 **O.H.Qandaharoy**
Talaba-yoshlarda fuqarolik va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish
- 77 **R.A.Yunusov**
Bo'lajak shifokorlarni ma'naviy-axloqiy sifatlarini ommaviy tadbirlar vositasida rivojlantirish
- 82 **F.M.Fayzullayev**
Yoshlarda milliy o'zlik tushunchalarini shakllantirish va rivojlantirish tamoyillari
- 87 **J.Ganueva**
Изучение международного опыта музыкально-культурного мировоззрения музыканта-исполнителя

KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 92 **A.G'.Turg'unboeva**
O'smirlik davrida milliy qiyofa va milliylik tushunchalarini shakllantirishda ta'lim tizimining o'rni
- 97 **C.Пурматов**
Визуальный опыт студентов в процессе разработки логотипа
- 102 **M.C.Пурматова**
Педагогические особенности изучения поэтики художественных произведений на занятиях русской литературы в высшем образовательном учреждении

XORIJIY TILLARNI O'QITISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH – DAVR TALABI

- 107 **З.Каримова**
К вопросу об использовании интерактивной доски на занятиях по иностранному языку



ALISHER NAVOIYNING UZLUKSIZ TARBIIYA VA UNING TURLARIGA OID PEDAGOGIK TA'LIMOTLARI

R. G. SAFAROVA,

*Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
«Milliy tarbiya, mutafakkirlar va jadidlarning pedagogik ta'limotlari»
ilmiy tadqiqot bo'limi mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor*

Mazkur maqolada buyuk mutafakkir, shoir Alisher Navoiyning o'quvchi hamda talaba-yoshlarni bilim olish, ijtimoiy faollik ko'rsatishga undash, bilish imkoniyatlari, borliqni anglash, idrok etish, yaratuvchanlik, mushohada qilish, intellektual rivojlanishi hamda bu jarayonda ustoz-murabbiylarning tutgan o'rni, ular egallashi kerak bo'lgan sifatlar haqida fikr bildirib o'tilgan. Shunga ko'ra, maqola ilmiy pedagogik jamoatchilik, tadqiqotchilar va talabalar uchun metodologik manba vazifasini o'taydi.

Kalit so'zlar: *Ijtimoiy faollik, odob-axloq, yoshlar, ma'naviy-axloqiy, vatanparvar, xalqparvar, diyonatli, adolatli, ilmsevar, muloqot, shaxslararo munosabat.*

This article expresses the views of the great thinker, poet Alisher Navoi on the motivation of students and young people to acquire knowledge, social activity, opportunities for knowledge, understanding of existence, perception, creativity, observation, intellectual development, as well as the role of teachers and mentors in this process, the qualities they should possess. Accordingly, the article serves as a methodological resource for the scientific and pedagogical community, researchers and students.

Key words: *Social activism, ethics, youth, spiritual and moral, patriotic, pro-people, religious, fair, science-loving, communication, interpersonal relationships.*

В данной статье изложены взгляды великого мыслителя, поэта Алишера Навои на мотивацию студентов и молодежи к получению знаний, общественную активность, возможности познания, понимание бытия, восприятие, творчество, наблюдение, интеллектуальное развитие, а также роль учителей и наставников в этом процессе, качества, которыми они должны обладать. Соответственно, статья служит методическим ресурсом для научно-педагогического сообщества, исследователей и студентов.

Ключевые слова: *Социальная активность, этика, молодежь, духовно-нравственный, патриотический, пронародный, религиозный, справедливый, любящий науку, коммуникация, межличностные отношения.*

Shaxs tarbiyasi haqidagi ta'limotlarga buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy ham o'ziga xos tarzda hissa qo'shgan. Uning asarlarini ma'naviy-axloqiy tarbiya kodeksini o'zida mujassalashtirgan manbalar deyish mumkin. Alisher Navoiy o'z asarlarida yoshlarni bilim olish, ijtimoiy faollik ko'rsatishga undagan. Mutafakkir shoir o'zining barcha asarlarida hayot va uning mohiyati, shaxs, davlat va jamiyat orasidagi munosabatlar, shaxsning bilish imkoniyatlari, borliqni anglash, idrok



etish, yaratuvchanlik, mushohada qilish, intellektual rivojlanish yo'nalishlari haqida fikr yuritgan. U insonning intellekti, psixologik jarayonlarini rivojlantirishga ilmiy nuqtai nazardan yondashgan. Inson aql zakovat bilan tabiat va jamiyat munosabatlarini tahlil qilishi lozim deb, hisoblaydi mutafakkir.

Alisher Navoiy o'zining «Xamsa», «Nasoyim ul-muhabbat», «Mahbub ul-qulub» kabi asarlari, she'r va dostonlarida pedagogik qarashlarini bayon qilgan. Adolat va adolatlilik masalasi shoir asarlarining yetakchi g'oyasi bo'lgan.

Alisher Navoiyning ta'biricha, yoshlarni vatanparvar, xalqparvar diyonatli, adolatli, ilmsevar, ota-onani qadrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Alisher Navoiy bolaning kamol topishida tarbiyaning alohida o'rin egallashini ta'kidlagan. Unga ko'ra, bolalar nima yaxshi-yu, nima yomonligini farqlay olishlari lozim. Shunga ko'ra, bolalarning tushunish, anglash, mushohada yuritish qobiliyatini rivojlantirish ota-onalar va ustoz – murabbiylarning zimmasidagi eng muhim vazifa hisoblanadi. Alisher Navoiy odob-axloqning inson uchun zarurligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, odobli kishi ochiq yuzli, xushmuomala, sertakalluf, yoqimli bo'ladi. Odob-axloqqa ega bo'lgan insonlar izzat-hurmatga loyiq bo'ladilar. Yaqinlarini hurmat qilish har bir odobli insonning asosiy fazilati hisoblanishini shoir qayta va qayta ta'kidlagan.

Shoir bu haqida shunday yozadi:

Har kingaki, daxr ichida donolik erur,

Hilm ila anga majlis oraliq erur [3], ya'ni aqli, dono kishi odobli, xushmuomala, xayoli, kamtarin bo'ladi deya ta'kidlagan shoir.

Navoiy o'zining pedagogik qarashlarida himmatlilik, saxiylik, jo'mardlikni ulug'laydi. U sahiylikni hosildir daraxtga o'xshatib, mazkur daraxtning mevalari shirin bo'lishini aytadi. Alisher Navoiy shaxslararo muloqotning ahamiyatiga yuqori baho beradi. Insonlar muloqot jarayonida bir-birlariga ruhiy ta'sir ko'rsatishlarini ta'kidlaydi. Alisher Navoiy Farhod haqida misralarini yozadi.

«Ko'ngli pok-u, ham ko'zi pok.

Tili pok-u, so'zi pok-u, o'zi pok» [2].

U Farhod timsolida barcha yoshlarni vatanparvarlik, xalqparvarlik ruhida tarbiyalashni nazarda tutadi.

Alisher Navoiy yirik ma'rivatparvar shoir, tasavvuf adabiyotining namoyandasi sifatida ta'lim-tarbiyaga oid o'gitlar, aqidalar, qadriyatlar, o'zidan oldin o'tgan mutafakkirlarning axloqiy tarbiyaga oid qarashlarini boyitishga muvaffaq bo'lgan. Alisher Navoiy shaxs kamolotida ilm-fanning ahamiyatiga yuksak baho bergan.



U aqliy tarbiyaga alohida e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlab, inson o'zining aqlidroki bilan boshqa mavjudodlardan farq qilishini o'z asarlarida qayta-qayta ta'kidlagan.

Alisher Navoiy komil insonning o'ziga xos sifatlari sirasiga, uning kreativligi, yuksak qobiliyatga egaligi, ilmsevarligini kiritgan. Alisher Navoiy baxtli hayotga erishishning sirlari haqida to'xtalib, oqil, qobiliyatli, dono inson o'zining kuch quvvatiga ishonadi, deb yozadi. Uning ta'biricha, ilm – zulmatni yorituvchi chiroq, insonning hayot yo'lini nurafshon etguvchi quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko'rsatadigan vosita sifatidadir. U mazkur fikrlarni o'zining «Nazm ul-javohir» asarida badiiy tarzda bayon qilgan:

Kim olim esa nuqtada barhak de oni,
Gap bazm tuzar bihishti mutlah de oni.
Har kimsaki yo'q ilmga anga ahmoq de oni,
Majlisdagi ilm bo'lsa uchmas de oni [1].

Ilmli inson chiniqqan, kamtarin, vatanparvar, o'z ideallariga sodiq shaxs sifatida shakllanishini tarixiy tajribalar yaqqol ko'rsatgan. Ilm xalqni jaholatdan qutqaradi. Urushlar, kelishmovchiliklarga barham beradi. Insoniyatni baxt-saodat sari yetaklaydi, degan g'oya Alisher Navoiy asarlarining mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Mutafakkir barcha asarlarida insonlarni ilm-ma'rifat egallashga undagan. Shuning uchun ham Alisher Navoiy asarlari umumbashariy ahamiyatga ega. Ilm egallashdan ko'zlangan asosiy maqsad, vatan va yurt obodligi, xalq faravonligi yo'lida xizmat qilishdan iborat ekanligini ta'kidlagan. U o'zining «Mahbub ul-qulub» asarida ilmli kishining fazilatleri va illatlarini ko'rsatgan. Uning ta'biricha, ilmni ezgulik yo'lida sarflamagan inson, shudgor qilib ekin ekmagan, urug' sochib hosilini parvarishlamagan kimsaga o'xshaydi:

Ilm o'qub, qilmag'on amali maqbul,
Dona sochib, ko'tarmadi mahsul [1].

Alisher Navoiy yoshlarni dunyoviy fanlarni o'rganishga da'vat etadi. Unga ko'ra, jamiyat ravnaqiga xizmat qilish uchun inson diniy bilimlar bilan bir qatorda, dunyoviy bilimlarni ham o'rganishi lozim. U «Ixlosiya» madrasi va uning huzurida ochilgan maktab faoliyatini ilmiy – pedagogik va moddiy jihatdan ta'minlashga xizmat qilgan. Eng yaxshi allomlar «Ixlosiya» madrasida ta'lim berganlar. U ustoz murabbiylarning ilmiy salohiyati va pedagogik mahoratiga alohida e'tibor qaratgan. U nodon, mutaassib, johil muallimlarni qattiq tanqid ostiga olgan. U o'qituvchining mashaqqatli mehnatini yuqori baholaydi. Uning murakkabligini



e'tirof etadi. U «Mahbub ul-qulub» asarida pedagogning mehnati haqida quyidagilarni yozadi: «Uning ishi odam qo'ldan kelmas, odam emas balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilardi, u esa bir to'lda bolaga ilm va adab o'rgatadi, ko'rkim bunga nima yetsin».

Shogird podshoh darajasiga ko'tarilsa ham o'z ustoziga ta'zim qilishi zarurligini quyidagi misralarda ta'kidlaydi:

Haq yo'lida kim senga harf o'qitmiş ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado oning haqqin yuz ganj ila [1].

Alisher Navoiy o'qituvchilik kasbiga aniq talablar qo'ygan. U madrasa mudarrislari bilimli, fozil va dono, kamtar, yuksak ma'naviyatli bo'lishlarini ta'kidlaydi. Bu haqda «Mahbub ul-qulub» asarida quyidagilarni yozadi: «mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa va olg'irlik uchun gap-so'z va g'avg'o yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o'rin bo'lmasa... Yaramasliklardan qo'rqsa va nopoklikdan qochsa, nainki, o'zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni qilmoq undan sodir bo'lsa va qilar ishlari qilmaslik unga qoida va odat bo'lib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir" [1].

Alisher Navoiy asarlarining bosh g'oyasi axloqiy tarbiya bo'lgan. Mutafakkir axloqning eng muhim mezonini odob ekanligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, odob-axloq me'yorlarini egallash har bir shaxsga jamiyatga yuksak mavqeni egallash imkonini beradi. Odobli yoshlar kattalarning e'tirofiga sazovor bo'ladilar. Ularga nisbatan mehr-shafqat uyg'otadi. Odobli insonlar doim hurmatga sazovor bo'ladilar. Ular o'zlarining kamsitilishlariga yo'l qo'ymaydilar. Atrofdagilarga odob bilan munosabatda bo'ladilar.

Navoiyning «Nazm ul-javohir» asarida bayon qilishiga ko'ra, inson uchun chiroyli odob, xulq va yaxshi tarbiya oltindan, har qancha boylikdan ham qadrlı, ustun va afzaldır. Chunki, boylik bilan ham topilmaydigan narsalar xushxulqlik, chiroyli muomala bilan topilishi mumkin. Boylik asosan insonning o'ziga foyda bersa, go'zal odob bilan kishi barchaga manfaat yetkazadi. Boylik bilan berkitib bo'lmaydigan ba'zi ayb-kamchiliklar chiroyli odob, xulq-atvor bilan yopilishi mumkin. Shu jihatdan odob-axloq boylikdan bir necha marta ustun turadi. Bu haqda Alisher Navoiy «Nazm ul-javohir»da shunday yozadi:

Oltin-kumush etma davlat kunidin,

Kim, tortar adab ulusni mehnat kunidin.

Gar yo'qtur adab, ne sud oltun unidin,



Elning adabi xushroq erur oltunidin [3].

Ko‘rinib turibdiki, Alisher Navoiyning she‘rlari, dostonlari, ruboiylari, hikmatlari axloqiy tarbiyaning muhim manbai hisoblandi. Undan o‘qituvchilar, ota-onalar, sinf rahbarlari tarbiyaviy vaziyatlarga bog‘liq holda tizimli tarzda foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishlari uchun Alisher Navoiy asarlarini shaxs ma‘naviyatini yuksaltirish nuqtai nazaridan yondashgan holda tahlil qilish, uzluksiz ta‘lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etishni nazarda tutgan holda tavsianomalar, qo‘llanmalar, har bir matn uchun darslikka ilova lug‘atlar tayyorlash talab etilmoqda. Bu sohada ota-onalar va o‘qituvchilarning pedagogik bilimlarini rivojlantirish maqsadida tarbiyaviy jarayonlarning metodik ta‘minotini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tavsiyalarga alohida ehtiyoj mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mahbul qulub. MAT: 20 tomlik. 14 t. -T.: Fan, 1998.
2. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Kutubxonachi.uz.
3. Alisher Navoiy. «Nazm ul-javohir». www.ziyouz.com kutubxonasi.
4. Tohir Xo‘jayev NAVOIY «XAMSA»si: obraz, badiiyat va mohiyat / - Toshkent: «Zilol buloq» nashriyoti, 2023.



UZLUKSIZ TA'LIM TASHKILOTLARIDA MILLIY KONTENTLAR YORDAMIDA GENDER TARBIYA MASALASI

X.M. TOJBOYEVA,

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti direktorning ilmiy ishlar
va innovatsiyalar bo'yicha o'rinbosari, p.f.d, professor

Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim tashkilotlarida milliy kontentlar yordamida gender tarbiyasi masalalari tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlar va ijodiy meros orqali gender tengligini ta'minlashdagi imkoniyatlar va muammolar ko'rib chiqilgan. Maqolada gender tarbiyasining zamonaviy talablarga moslashtirilishi, pedagoglar tayyorgarligi va ta'lim dasturlarining takomillashtirilishiga alohida e'tibor qaratiladi. Tahlil natijalari milliy kontentlarni tarbiyada samarali qo'llash orqali gender stereotiplarini yumshatish mumkinligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: uzluksiz ta'lim, milliy kontentlar, gender tarbiyasi, gender tengligi, ta'lim muassasalari, milliy qadriyatlar.

В статье анализируются вопросы гендерного воспитания с использованием национального контента в организациях непрерывного образования. Рассматриваются возможности и проблемы обеспечения гендерного равенства через национальные ценности и творческое наследие. Особое внимание уделяется адаптации гендерного воспитания к современным требованиям, подготовке педагогов и совершенствованию образовательных программ. Результаты исследования показывают, что эффективное применение национального контента в воспитательном процессе способствует снижению гендерных стереотипов.

Ключевые слова: непрерывное образование, национальный контент, гендерное воспитание, гендерное равенство, образовательные учреждения, национальные ценности

This article analyzes issues of gender education using national content in continuous education organizations. It examines the opportunities and challenges of ensuring gender equality through national values and creative heritage. Special attention is given to adapting gender education to modern requirements, teacher training, and improving educational programs. The study results indicate that effective use of national content in the educational process helps to reduce gender stereotypes.

Key words: continuous education, National content, Gender education, Gender equality, Educational institutions, National values.

Bugungi kunda jahon miqyosida gender masalalari jamiyatda barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimida bu masalaga jiddiy yondashish, erkaklar va ayollar o'rtasida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash, bolalarda gender ongini shakllantirish ustuvor



vazifalardan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, uzluksiz ta'lim tizimi orqali milliy qadriyatlar asosida tarbiya berish orqali gender tengligini shakllantirishning muhim ahamiyati bor.

Milliy kontentlar – xalq og'zaki ijodiyoti, adabiyot, tarix, urf-odatlar va milliy an'analar – nafaqat axloqiy, balki gender tarbiyasi uchun ham boy manba hisoblanadi. Ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llash orqali bolalar va yoshlarda gender muvozanatiga nisbatan to'g'ri munosabat shakllanadi.

Gender tushunchasi jins biologiyasi emas, balki ijtimoiy rollarni belgilab beradigan ijtimoiy va madaniy kategoriya hisoblanadi. Gender tarbiya – bu qiz va o'g'il bolalarda o'z shaxsiyatini to'g'ri anglash, o'z rolini jamiyatda adekvat baholay olish qobiliyatini shakllantirish jarayonidir.

Bu tarbiyaning ahamiyati shundaki, u bolaning shaxsiy o'sishi, mustaqil fikr yuritishi, jamiyatda munosib o'rin egallashida asos bo'ladi. Agar bu tarbiya to'g'ri tashkil etilmasa, bolada jinslararo diskriminatsiyaga moyillik, shaxsiy qadriyatlarining buzilishi kuzatilishi mumkin.

Uzluksiz ta'lim – bu maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim bosqichlarini qamrab oluvchi yagona tizimdir. Har bir bosqichda tarbiyaviy ishlar maxsus dasturlar asosida olib boriladi.

Gender tarbiyasi uzluksiz tarbiyaning barcha bosqichlarida muhim vazifa sifatida qaralishi kerak. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar o'rtasidagi munosabatlar, o'yinlar orqali ijobiy gender obrazlari shakllantiriladi. Maktab yoshida esa, adabiyot va tarix fanlari orqali faol o'rgatish mumkin.

Bugungi kunda ta'lim tashkilotlarida gender tarbiyasiga oid qator muammolar mavjud. Ushbu muammolar ijtimoiy, madaniy, institutsional va metodik omillar bilan bog'liq. Quyida eng asosiylari keltirilgan:

1) Gender stereotiplarning saqlanib qolishi: Ta'lim muassasalarida ayollar va erkaklar haqidagi an'anaviy va bir tomonlama qarashlar hali ham uchrab turadi. Masalan: qiz bola – faqat oila, uy-turmush bilan bog'liq rollarda ko'riladi; o'g'il bolalardan doimo kuchli, harakatchan bo'lish talab qilinadi. Darsliklarda va o'quv materiallarida ayrim kasblar yoki rollar ayol yoki erkakka xos deb ta'riflanadi (masalan, «muallim – erkak», «oshpaz – ayol»).

2) O'qituvchi va tarbiyachilarning gender savodxonligi pastligi: Ko'pgina pedagoglar gender tushunchasining mazmunini to'liq bilmaydilar. Gender tengligini ta'minlash bo'yicha maxsus tayyorgarlik va qayta tayyorlash kurslari yetarli emas. Ayrim hollarda o'qituvchining shaxsiy qarashlari ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

3) Ta'lim mazmunida gender muvozanatning yetishmasligi: Darsliklar va o'quv qo'llanmalarda ayollar va erkaklar obrazlari noteng namoyon bo'ladi. Masalan, tarixiy shaxslar ichida ayollar kam uchraydi. Hikoya, she'r, misollarda



ko'proq erkaklar faol, yetakchi sifatida berilgan, ayollar esa ikkinchi darajali rolda.

4) Infratuzilma va muhitda gender sezgirlik yo'qligi: Ayrim ta'lim muassasalarida qiz va o'g'il bolalar uchun teng sharoitlar yaratilmagan; Sport inshootlari, texnik to'garaklar – asosan o'g'il bolalarga mo'ljallangan; Qizlar esa faqat «oshpazlik», «to'qish» kabi an'anaviy to'garaklarga jalb qilinadi. Har xil jinsdagi o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarda teng hurmat va shaffoflik ta'minlanmaydi.

5) Jinsga ko'ra kasb tanlashdagi cheklovlar: Ko'plab o'quvchilar va ularning ota-onalari kasb tanlashda hali ham jinsga qarab qarashadi: «Qiz bola muhandis bo'lmasin», «O'g'il bola hamshira bo'lmaydi» degan stereotiplar hukmron. Bu xolat yoshlarning qobiliyati va qiziqishlari e'tiborsiz qolishiga olib keladi.

6) Zo'ravonlik va kamsitish holatlariga yetarli e'tibor berilmasligi: Ayrim ta'lim muassasalarida qiz yoki o'g'il bolalar jinsiga ko'ra masxaralanishi yoki kamsitilishi holatlari uchraydi. Bu kabi vaziyatlarda murabbiy va pedagoglar tomonidan yetarli muhokama qilinmasligi ham muammo hisoblanadi.

Gender tarbiyasini amalga oshirishda eng katta to'siq – bu an'anaviy stereotiplar, pedagogik tayyorgarlikning yetishmasligi va ta'lim mazmunidagi bir tomonlama yondashuvdir. Muammolarni bartaraf etish uchun tizimli, maqsadli va milliy qadriyatlarga uyg'un yondashuv talab qilinadi.

Milliy kontent – bu xalqning ma'naviy merosi, urf-odatlari, an'analari, tarixiy merosi va ijodiy namunalari. Bu kontentlar gender tarbiyasida quyidagicha ko'llanilishi mumkin:

Adabiyot va folkloridagi obrazlar orqali qiz va o'g'il bolalarga mos ijobiy rol modellarini ko'rsatish. Masalan, «Alpomish», «Guloyim», «Taxir va Zuhra» kabi epik asarlardagi obrazlar orqali jasorat, iffat, vatanparvarlik va mas'uliyat hissini tarbiyalash.

Hikoya va ertaklar orqali mehr-shafqat, adolat va hamjihatlik kabi fazilatlarini qiz va o'g'il bolalarga teng ravishda singdirish.

Tarixiy shaxslar hayoti orqali ayol va erkaklar teng imkoniyatlarga ega bo'lishi mumkinligini ko'rsatish. Masalan, Nodirabegim, Tomuris, Zahira, Muhammad al-Xorazmiy, Ibn Sino kabi shaxslarning hayotidagi ijobiy jihatlardan foydalanish.

Urf-odat va marosimlardagi tarbiyaviy jihatlarni qayta tahlil qilish, ularni zamonaviy gender yondashuvlar asosida qayta shakllantirish.

Amaliyotdan misollar. Maktabgacha ta'limda:

Milliy o'yinlar (masalan, «Qizlar o'yini», «Og'zaki topishmoqlar») orqali bolalarni teng huquqli munosabatga o'rgatish.

Rasm chizish, she'r o'qish, rolli o'yinlar orqali bolalarda ijobiy gender ongini shakllantirish.

Umumiy o'rta ta'limda:



Adabiyot darslarida qizlar va o'g'il bolalar obrazlarini tahlil qilish.
«Inson va jamiyat» fanlarida tenglik va mas'uliyat mavzularini muhokama qilish.

Oliy ta'lim va kasb-hunar tashkilotlarida:

Gender masalalariga bag'ishlangan seminar-treninglar tashkil qilish.

Milliy madaniyat va ijtimoiy fanlarda gender mavzusini kiritish.

5. Muammolar va yechimlar

Muammolar:

Ayrim milliy kontentlarda stereotiplar mavjud (masalan, «ayol uyda bo'lishi kerak» kabi qarashlar).

Tarbiyachilar va o'qituvchilarning gender savodxonligi yetarli emas, institutsional yondashuvning yo'qligi.

Yechimlar:

Milliy kontentni qayta tahlil qilish, zamonaviy talablarga moslashtirish.

Tarbiyachilar uchun maxsus gender savodxonligi kurslarini tashkil etish.

Ta'lim dasturlariga gender tarbiyasiga oid modullarni kiritish.

Xulosa. Uzlüksiz ta'lim tashkilotlarida milliy kontentlar yordamida gender tarbiyasini yo'lga qo'yish – bu nafaqat ma'naviy, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Bolalarda teng huquqlilik, o'zaro hurmat, mas'uliyat tuyg'ularini shakllantirish orqali kelajakda adolatli va barqaror jamiyatga asos yaratiladi. Milliy merosimizga tayangan holda zamonaviy yondashuvni tatbiq etish ta'lim sifatini yanada oshiradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdagi PF-87-sonli «Gender tengligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini yanada takomillash-tirish to'g'risida»gi farmoni.

2. «Uzlüksiz ta'lim tizimida tarbiya konsepsiyasi», O'zbekiston Respubli-kasi Vazirlar Mahkamasi, 2021.

3. YuNESKO. «Gender equality in education» (yuridik va pedagogik tavsiyalar).

4. Qurbonova, G. «Gender tarbiyaning nazariy asoslari». - Toshkent: 2020.

5. Boboyev, E. «Milliy an'analar va zamonaviy tarbiya». - Samarqand, 2019.

6. Nazarova, F. «Gender pedagogikasi asoslari». - Toshkent, 2021.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA HISSIY INTELEKTNI RIVOJLANTIRISH METODLARI

R.B.YARMATOV,

*Jizzax davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fanlari doktori(DSc), professor*

Maqola o'qituvchilarning uzluksiz ta'lim aspektida hissiy intellektni ko'rib chiqishga bag'ishlangan. Tahlil o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini o'zgartirishning dolzarb muammolari asosida amalga oshirildi. O'qituvchining kasbiy rivojlanishining ijodiy tarkibiy qismi o'qituvchining kasbiy mahoratining asosi hisoblanadi. Maqolada hissiy intellektning rivojlanishi va o'qituvchining kasbiy va shaxsiy salohiyatini faollashtirish o'rtasidagi munosabatlarning xususiyatlari tahlil qilinadi. Ta'kidlanishicha, o'qituvchining hissiy intellektini rivojlantirish zamonaviy ijtimoiy-madaniy vaziyatda juda muhim va dolzarb ko'rinadi. Uzluksiz ta'lim jarayonida o'qituvchining hissiy intellektini rivojlantirish zarurati asoslanadi.

Kalit so'zlar. *Kasbiy faoliyat, uzluksiz ta'lim, hissiy intellekt, shaxsning psixologik va pedagogik salohiyati, o'qituvchining kasbiy ijodiyoti, hissiy savodxonlik.*

The article is devoted to consideration of emotional intelligence in the aspect of continuous education of teachers. The analysis is based on the current tasks of transformation of professional activity of teachers. The creative component of professional development of a teacher is considered as the basis of professionalism of a teacher. The article analyzes the features of the relationship between development of emotional intelligence and actualization of professional and personal potential of a teacher. It is noted that development of emotional intelligence of a teacher seems to be extremely important and relevant in the modern socio-cultural situation. The necessity of development of emotional intelligence of a teacher in the process of continuous education is substantiated.

Key words: *Professional activity, continuous education, emotional intelligence, psychological and pedagogical potential of the individual, professional creativity of the teacher, emotional literacy.*

Uzluksiz ta'lim hayot tarzining o'ziga xos «konstruktori» bo'lib, harakatchanlik, moslashuvchanlik, moslashishga tayyorlik, o'z rivojlanishi uchun javobgarlik va qarorlar qabul qilishda mustaqillikni o'z zimmasiga oladigan xatti-harakatlarning ma'lum bir ijtimoiy-madaniy modelini shakllantiradi. Ushbu xatti-harakatlar modeli nafaqat bilimlarni to'plashni, balki muvaffaqiyatli hayot va kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan asosiy vakolatlarni doimiy ravishda rivojlantirish va takomillashti-rishni o'z ichiga oladi. Bu, ayniqsa, bilim va ko'nikmalarni doimiy ravishda yangilashni talab qiladigan sohalar, masalan, pedagogikada ishlaydigan mutaxassislar uchun juda muhimdir.

Tarixan umrbod ta'limning uchta asosiy konseptual yondashuvi mavjud



bo'lgan. Birinchi, an'anaviy yondashuv, umrbod ta'limni birinchi navbatda kattalar uchun kasbiy ta'lim sifatida ko'rib chiqadi va ilgari olingan bilim va ko'nikmalardagi bo'shliqlarni qoplash uchun mo'ljallangan. Bu mutaxassislardan doimiy ravishda o'z malakalarini yangilab turishni talab qiladigan texnologik taraqqiyotning jadal sur'atlari bilan bog'liq. Shu nuqtai nazardan, umrbod ta'lim qo'shimcha, kompensatsion ta'lim, katta tizimning bir qismi – «hayot uchun ta'lim» sifatida ishlaydi. Ushbu yondashuv, garchi muhim bo'lsa-da, ko'pincha faqat professional jihatlar bilan chegaralanadi va har doim ham o'z-o'zini rivojlantirish uchun individual ehtiyojlarning keng doirasini hisobga olmaydi.

Ikkinchi yondashuv – umrbod ta'limning yanada yaxlit va har tomonlama ko'rinishi. U buni umrbod o'z-o'zini takomillashtirish jarayoni, bilim va shaxsiy o'sishga doimiy intilish sifatida qaraydi. Ushbu yondashuv doirasida asosiy e'tibor kamchiliklarni qoplashdan maqsadli shaxsiy rivojlanishga, o'z dunyoqarashini kengaytirishga va kasbiy faoliyat bilan bog'liq bo'lmagan yangi bilim va ko'nikmalarni egallashga o'tadi. Bu yerda nafaqat kasbiy tayyorgarlik, balki shaxsiy boyitish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, shuningdek, ijtimoiy moslashuv ham muhimdir. Bunday yondashuv uzluksiz ta'lim jarayonini pedagogik tashkil etish, uning samarali amalga oshirilishini ta'minlash muhimligini ta'kidlaydi. Turli yosh guruhleri va o'quvchilarning individual xususiyatlariga moslashtirilgan innovatsion o'qitish usullarini ishlab chiqishni talab qiladi. Ushbu yondashuv doimiy o'z-o'zini tarbiyalash va o'zgarishlarga moslashish qobiliyatiga ega mustaqil va mas'uliyatli shaxsni shakllantirishga yordam beradi.

Uchinchi yondashuv, garchi kamroq tarqalgan bo'lsa-da, umrbod ta'limni shaxsning uyg'un rivojlanishiga qaratilgan turli xil ta'lim va o'z-o'zini tarbiyalash shakllarini birlashtirgan integral jarayon sifatida ko'rib chiqadi. U asosiy e'tiborni rasmiy, norasmiy va norasmiy ta'lim o'rtasidagi munosabatlarga qaratadi, uzluksiz ta'lim va o'z-o'zini takomillashtirishning yaxlit tizimini yaratishga intiladi. Ushbu yondashuv har bir shaxsning o'ziga xos ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga oladigan o'rganishga individual yondashuvni ta'minlaydi. Shuningdek, u uzluksiz o'z-o'zini takomillashtirish jarayonida ijtimoiy o'zaro ta'sir va jamoaviy ta'limning muhimligini ta'kidlaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu uchta yondashuv bir-birini istisno qilmaydi. Amalda ular ko'pincha bir-birini to'ldiradi, umrbod ta'lim tushunchasi haqida to'liqroq tushuncha yaratadi.

Hissiy intellektni rivojlantirish uzluksiz ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, shaxsiy va professional hayotda muvaffaqiyatga hissa qo'shadi. Eini rivojlantirish usullarini joriy etish har tomonlama va ta'limning turli darajalariga integratsiyalashgan bo'lishi kerak. Uzluksiz ta'lim tizimida samarali bo'lgan ba'zi usullar:



1. Zehnni rivojlantirish treningi:
– Amaliyotlar: Meditatsiya, nafas olish mashqlari, fikrlaringiz va his-tuygʻularingizni ongli ravishda kuzatish.

– Taʼlimda qoʻllanilishi: Oʻquv kunida qisqa ongni rivojlantirish mashgʻulotlarini kiritish, stressni kamaytirish uchun meditatsiya usullarini qoʻllash, oʻqituvchilar va talabalar uchun ongni rivojlantirish dasturlari.

– Natija: oʻz-oʻzini boshqarishning kuchayishi, stressning pasayishi, konsentratsiyaning yaxshilanishi, hissiy barqarorlikning oshishi.

2. Emotsional savodxonlikni rivojlantirish:

– Amaliyotlar: Turli his-tuygʻularni, ularning namoyon boʻlish sabablarini va oqibatlarini oʻrganish; oʻzida va boshqalarda his-tuygʻularni tan olish va nomlash koʻnikmalarini oʻrganish; his-tuygʻularning xatti-harakatlarga taʼsirini tahlil qilish.

– Taʼlimda qoʻllanilishi: rolli oʻyinlardan foydalanish, guruh muhokamalari, hissiy vaziyatlarni tahlil qilish uchun keyslar, taʼlim dasturlariga hissiy savodxonlik mavzularini kiritish.

– Natija: Oʻz his-tuygʻularingizni tushunish va boshqarish qobiliyati yaxshilandi, yanada samarali muloqot.

3. Shaxslararo muloqot koʻnikmalarini oʻrgatish:

– Amaliyotlar: faol tinglash, empatiya, konstruktiv dialog oʻtkazish, nizolarni hal qilish, nizolarni boshqarish, qatʼiy xulq-atvorni rivojlantirish.

– Taʼlimda qoʻllanilishi: Shaxslararo muloqotni oʻrgatish, rolli oʻyinlar, guruhda ishlash, real muloqot holatlarini tahlil qilish, teskari aloqa.

– Natija: Yaxshilangan muloqot qobiliyatlari, muvaffaqiyatli shaxslararo munosabatlar, samarali jamoaviy hamkorlik.

4. Oʻz-oʻzini ragʻbatlantirish va oʻz-oʻzini tartibga solishni rivojlantirish:

– Amaliyotlar: Maqsadni belgilash, rejalashtirish, oʻz-oʻzini nazorat qilish, vaqtni boshqarish, kechiktirishni yengish, ijobiy fikrlashni rivojlantirish.

– Taʼlimda qoʻllanilishi: Vaqtni boshqarish usullaridan foydalanish, SMART maqsad usullari, oʻz-oʻzini tarbiyalash dasturlari, murabbiylik.

– Natija: samaradorlikni oshirish, maqsadlarga erishish, oʻzgarishlarga yaxshiroq moslashish

5. Empatiyani rivojlantirish:

– Amaliyotlar: Badiiy adabiyot oʻqish, filmlar tomosha qilish, ijtimoiy muammolarni muhokama qilish, koʻngillilik, jamoada ishlash, empatiyani rivojlantirish uchun oʻyinlar.

– Taʼlimda qoʻllash: Loyihaga asoslangan taʼlim usullaridan foydalanish,



guruhlarda ishlash, axloqiy dilemmalarni muhokama qilish, turli ijtimoiy guruhlardagi odamlar bilan muloqot qilish.

– Natija: Boshqa odamlarning his-tuyg‘ulari va tajribalarini tushunish, hamdardlik va yanada uyg‘un munosabatlar o‘rnatish qobiliyatini yaxshilash.

6. Raqamli vositalardan foydalanish:

– Amaliyotlar: hissiy intellektni rivojlantirish uchun onlayn platformalar, o‘yinlar va ilovalar, vaziyat simulyatorlari.

– Ta’limda qo‘llanilishi: Ta’lim jarayoniga raqamli vositalarni integratsiyalash, Elni rivojlantirish bo‘yicha onlayn kurslar va treninglar yaratish, o‘z-o‘zini ta’lim olish uchun onlayn resurslardan foydalanish.

– Natija: hissiy intellektni rivojlantirish usullarining mavjudligi, o‘rganishning moslashuvchanligi.

Uzlüksiz ta’lim tizimiga integratsiya:

– Dastlabki bosqichlarda: hissiy savodxonlik, xabardorlik va o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga e’tibor qarating.

– O‘rta bosqichlarda: shaxslararo muloqot, empatiyani rivojlantirish, o‘z-o‘zini rag‘batlantirish bo‘yicha treningni kiritish.

– Ilg‘or bosqichlarda: yetakchilik fazilatlarini rivojlantirish, jamoani boshqarish qobiliyatlari, nizolarni boshqarish, o‘z-o‘zini takomillashtirish.

Elni rivojlantirish usullarining muvaffaqiyatli integratsiyasi tizimli yondashuvni talab qiladi, jumladan:

– O‘qituvchilar malakasini oshirish: o‘qituvchilarni o‘quvchilarning hissiy aqli bilan ishlashning samarali usullariga o‘rgatish.

– O‘quv materiallarini ishlab chiqish: Elni rivojlantirishga qaratilgan o‘quv dasturlari va qo‘llanmalarni yaratish.

– Samaradorlikni baholash: Elni rivojlantirish dasturlari samaradorligini baholash tizimlarini ishlab chiqish.

Zamonaviy texnologiyalar, interfaol usullar, didaktik materiallar – bularning barchasi ijodiy g‘oyalarni samarali amalga oshirishga yordam beradi. Albatta, uslubiy tavsiyalar va munosabatlarning ilmiy asoslilikini, shuningdek, ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazasini eslatib o‘tmaslik mumkin emas. Yetarli mablag‘, zamonaviy uskunalar va o‘quv qo‘llanmalarisiz pedagogik ijodkorlikni rivojlantirish juda qiyin bo‘ladi. Nihoyat, vaqt omilini hisobga olmaslik mumkin emas-o‘qituvchi o‘zining ijodiy rejalarini amalga oshirish, aks ettirish va o‘zini takomillashtirish uchun yetarli vaqtga muhtoj. Yetarli vaqtning yetishmasligi muqarrar ravishda ijodiy salohiyatning pasayishiga olib keladi.



Biroq, obyektiv shartlar tanganing faqat bir tomonidir. Subyektiv omillar, ya'ni o'qituvchining shaxsiy fazilatleri va qobiliyatlari bundan kam emas va ehtimol undan ham muhimroqdir. Bularga pedagogik jarayonning qonuniyatlari va tamoyillarini chuqur tushunish, umumiy madaniy tayyorgarlikning yuqori darajasi, zamonaviy pedagogik tushunchalarni o'zlashtirish, vaziyatlarni tahlil qilish va samarali qarorlar qabul qilish qobiliyati kiradi. Ijodkorlikka intilish, rivojlangan pedagogik fikrlash va aks ettirish, pedagogik tajriba to'plash va pedagogik intuitivlikni rivojlantirish muhimligini ta'kidlash mumkin emas.

Nostandart vaziyatlarda tezkor va samarali qarorlar qabul qilish qobiliyati, muammoli qarash va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish-bularning barchasi pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning subyektiv shartlarining ajralmas qismidir. Bundan tashqari, doimiy o'z-o'zini tarbiyalash va uzluksiz kasbiy rivojlanish pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. O'z tajribangizni birlashtirish, yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish – bu o'qituvchining ijodiy salohiyatini kengaytirishga yordam beradigan doimiy o'zini takomillashtirish jarayoni. Bu yerda hissiy intellektni rivojlantirish asosiy rol o'ynaydi, bu o'qituvchiga talabalar bilan ishonchli munosabatlarni o'rnatish, ularning ehtiyojlarini his qilish va har biriga individual yondashuvni topishga imkon beradi. Umuman olganda, pedagogik ijodkorlikning rivojlanishi murakkab, ko'p bosqichli jarayon bo'lib, uning samaradorligi qulay tashqi sharoitlarning uyg'un kombinatsiyasiga va o'qituvchining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Andreeva, I. N. Hissiy intellekt tushunchasi va tuzilishi / I. N. Andreeva // mentalitetning ijtimoiy-psixologik muammolari: 6-xalqaro. Ilmiy. amaliyot. konf. Smolensk: SGPU, 2004. 1-qism 22-26-sahifa.
2. Vygotskiy, L. S. Fikrlash va nutq. Psixika, ong, ongsiz: psixologik tadqiqotlar / L. S. Vygotskiy. - M.: Akademiya, 2001 Yil. 248b.
3. Zinchenko, V.P. Ta'limdagi ta'sir va aql / V.P. Zinchenko - M.: Trivola, 1996. 65b.
4. Leontiyev, A. N. Faoliyat, ong, shaxsiyat / A. N. Leontiev. M.: siyosiy adabiyot nashriyoti, 1975. 304s.
5. Manoylova, M. A. kelajkdagi o'qituvchilarning hissiy intellektini rivojlantirish / M. A. Ma-noylova. Pskov: PGPI, 2004. 60b.



JISMONIY TARBIYANI O'QITISHDA UZLUKSIZ PEDAGOGIK AMALIYOTIGA TIZIMLI YONDOSHISH MASALALARI

Z. PALIBAYEVA,

Adaptiv jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti p.f.b.f.d. (PhD), professori

General scientific methodology can be presented by system approaches, reflecting general relationship and interdependence phenomena have and processes surrounding reality. He orientates the researcher and practice on need to approach to phenomena of the life as to system, having determined construction and their own laws of the operation. Essence of the system approach is concluded in that that comparatively independent components are considered is not insulated, but in their interconnection, in development and motion. The given article describe theoretical base of the system approach continuing pedagogical practice in physical culture.

Key words: *pedagogy, system approach, theory, continuing pedagogical practice.*

В данной статье рассматривается теоретическая основа системного подхода непрерывный педагогический практики в физкультуре. Общенаучная методология может быть представлена системным подходом, отражающим всеобщую связь и взаимообусловленность явлений и процессов окружающей действительности. Он ориентирует исследователя и практика на необходимость подходить к явлениям жизни как к системам, имеющим определенное строение и свои законы функционирования. Сущность системного подхода заключается в том, что относительно самостоятельные компоненты рассматриваются не изолированно, а в их взаимосвязи, в развитии и движении.

Ключевые слова: *педагогика, системный подход, теория, непрерывная педагогическая практика.*

Tizimli yondoshish fanda uzoq davom etgan bir tomonlama izlanish davrida, doimo biror narsa tahlil qilinganda, nimanidur yetishmasligi oqibati, bir qismdi ikkinchisiga bog'liq tarafini aniqlay olishmagan yoki bir butunni qismlarga ajrata olishmagan, ularni aloqadorligini anglay olishmagan, tabiatda biror narsaga uning ekvivalenti yo bo'lmasa, unga o'hshashini topisha olmagan bir payitda vujudga kedi.

«Tizimli yondoshish» termini hozirgi kunda ommaviy tarqalgan, ilmiy hayotimizga ko'p emas, yarim asr ilgari kirib kelgan.

Tizimli yondoshish o'zidan taxminan metodologik izlanishni taqazo etadi va obyektни o'rganish jarayonida uni tizim sifatida ko'rib chiqadi, obyektни loyihalashtirish va tuzishda ham bir tizim holida ko'radi, buning mohiyati shundaki qilinayotgan jarayon doimo bir butunlikni aloqadorlikda bo'lishini ta'minlaydi.



Shunday qilib, tizimli yondoshish bu metodologik bilim shakllaridan biri bo‘lib, u izlanish bilan bog‘liq, obyektini tizimli loyihalashtiradi va tuzadi. Tizimli yondoshish o‘zining mavqei bilan ichki ilmiy refleksiya shakli hisoblanadi, tabiatan kelib chiqishi bo‘lsa, umumilmiy va sohalararo hisoblanadi. Shu bilan birga uning ketma-ketlikni ta‘minlovchi maqsadi qismlarni bog‘lash hisoblanadi.

Shuni ham takidlash kerakki, tizimli yondoshishning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi [2]:

- konseptual vositalar ishlanmasida obyektini tadqiq qilishni tizim sifatida ko‘rsatish;

- tizimni modelini tayyorlashda boshqa turdagi modellar bilan solishtirish, tizimda modelning dinamikasi, uni qay maqsadga yo‘naltirilganligi, rivojlanishi, tizimda bosqichma-bosqich boshqarilishi va boshqa jarayonlar ham inobatga olinishi lozim;

- metodologik asnoga ega boshqa turdagi nazariy tizimni tadqiq qilish.

Zarur bo‘lgan, barcha hodisalarni tizimli narsadagi faoliyati – bu qatilylik bilan umumiylik qoidalarga, tarkibga, bosqichma-bosqichlilikga, yakuniy natijalarni aloqadorligiga amal qilishdir.

Shundan kelib chiqib, bizning OTM dagi jismoniy madaniyat talabalarini tadqiqimiz jarayonida, uzluksiz pedagogik amliyotdagi bir tizim sifatida tadqiq qildik, ularni biz bir butun tushunchasi bilan yaqin aloqadorlikda, tarkibini umumiy deb, munosabatni tizim ostida va boshqa hollarda tadqiq qildik. Izlanishimizga, bunday yondoshganimizni sababi shundaki yuqorida aytib o‘tkanimizdek «tizim» tushunchasi bu keng ko‘lamda qo‘laniladi (amalda har bir obyekt tizim sifatida o‘rganilishi mumkin), uning to‘liq tushunchasi bo‘lsa barcha shu jarayondagi izlanishda umumiy bir oila tuzilishi sifatida shakllanib boradi.

Faqatgina shunday oiladagina tizimning asosiy qoidalarini ifoda etish mumkin va biz doim unga tayanamiz. Ular tarkibiga quyidagilar kiradi [2]: yaxlitlik, tarkibiylik, tizimni va muhitni aloqadorligi, bosqichma-bosqichlilik, ko‘plilik har bir tizimga ta‘rif berilganidek.

Hamma tizimni uch turga bo‘lish mumkin [2, 74-75]:

- barqaror tizim deb, tizimlarga munosabat bildirib saralangani hisoblanadi;
- ishlayotgan tizimda aniq o‘zgaruvchan bir necha tizim osti qismlar mavjud bo‘ladi. Mana shu qismlarni o‘zgarishi ta‘sirida tizim joylashishi o‘zgaradi. Ammo belgilangan vaqt boshlang‘ich va ohirgi holati bilan solishtirilganda mos keladi;
- jarayonni o‘rganishning eng muhim jihatlaridan biri bu uzluksiz pedagogik amliyotda OTM ning jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalarining tizimda shiddat



bilan rivojlanishini quyidagi hollarda izohlash mumkin:

- ularda tizim osti qismlar belgilangan va ohiri belgilanmaganlari ham mavjud, jumladan qismlarni ko‘rib chiqish uchun aniq vaqt ko‘rsatilmagan;
- ularga o‘ziga xos asosiy va asosiy bo‘lmagan o‘zgarishlar majmui berilgan va ularni belgilash shart emas;
- berilgan vaqt davomida tizim ostida qismlar sifat va son jihatidan amalga oshirilgan o‘zgarishlarni ko‘radi.

Biz izlanish jarayonimizda ko‘rib chiqayotgan talabalarning uzluksiz pedagogik amaliyotini, rivojlanuvchi tizim deb hisobladik, uni nazariy jihatdan o‘zini boshqarish holatida ko‘rib chiqishga imkon beradi, sinergetik g‘oyani jihatidan yondoshish juda qo‘l keladi. Mazkur yondoshish doirasida asosiy e‘tibor ochiq tizimga qaratiladi, u chiziqsiz, davriy, tasodifiy (bilib bo‘lmaydigan), o‘zini boshqaraladi, o‘zini rivojlantiradi (P.K.Anoxin, Ye.Knyazev, S.P.Kurdyumov, N.N.Moiseev, I.I.Prigojin va boshqalar).

Shunday qilib, talabalarning aniq kasbiy faoliyatini uzluksiz pedagogik amaliyoti jarayonida murakkab hollatini, uni tashkillashtirishni faqatgina tizimlashtirish asnosida amalga oshirish mumkin. Bu jarayon butun, yaxshi tuzilgan, ichki va tashqi qismlar tuzilishining aloqadorligi o‘rnatilgan bo‘lishi lozim. Shuni ham takidlash kerakki, uzluksiz pedagogik amaliyotini tizimlashtirish jarayoniga yuqorida keltirgan qoidalarni qo‘shish darkor: talabalarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida gumanizatsiyalash, kasbiy maqsadga muvofiqlik, pedagogik refleksiya, OTM da Jismoniy madaniyat sohasida kasbiy tayyorgarlik tizimining ko‘p bosqichliligi va pedagogik marketing.

Shuni takidlaymizki, aniq bir jarayonni o‘rganishimizda, biz tizimli yondoshishda umummetodologik yo‘nalishga tayanib ish olib bordik, unda murakkab tizimli nazariy izlanishlarni metod va usullarni ishlab chiqdik.

Tadqiqotning davomida, tizimli yondoshishni pedagogik fanlarda qanday qo‘llashni ko‘rsatamiz. Pedagogikada tizimli yondoshishning qo‘llanilishi shart deb G.N.Serikova bir necha sabablar bilan keltirgan o‘zining fikrida [2]:

- a) birinchidan, ta‘lim tarbiya berish jarayoni murakkab tizim sifatida namoyon bo‘ladi, buni faqatgina tizimli yondoshish asosidagina boshqarish mumkin;
- b) ikkinchidan, tizimli yondoshishsiz ta‘lim tarbiya jarayonida pedagogik boshqarish nazariyasi ishlanmasini amalga oshirish, aql bovor qilmaydigan jarayondir, pedagogik mohiyatni anglab bo‘lmaydi, aloqadorlikni aniqlashni, sababiyatlarni shakllantirish, pedagogik jarayonni boshqarishni iloji bo‘lmaydi;
- v) uchinchidan, ilmiy tadqiqot jarayonida metodlardan foydalanish kerak,



albatta o'rganilayotgan obyektning tuzilishiga qarab; pedagogik jarayonga tizim mos kelganidek, tizim metodlari ham mos kelishi lozim;

g) to'rtinchidan, tizimli yondoshish – bu faqat angash usuli emas, balkim, tizim vazifalarini tashkillashtirish hamdir (bizning izlanishlarimizda – talabalarning uzluksiz pedagogik amaliyotini tizimlashtirish).

Pedagogika sohasida muammolar yechimi topishda va uni bartaraf etishda muammoga tizimli yondoshgan asosiy qarashlar quyidagi olimlar tomonidan amalga oshirilgan M.N.Apletaeva, Yu.K.Babanskogo, V.A.Belikova, V.P.Bespalko, V.T.Ivkina, T.A.Ilina, E.F.Zeera, L.M.Panchenikovo, V.I.Slobodchikova, I.M.Starikova, I.K.Shalamova va boshqalar.

Falsafiy ensiklopedik lug'atda «tizim» tushunchasini quyidagicha ifoda etadi, qismlar mohiyati, bir-biri bilan doimo aloqada, bir butunlikni birdamlikni tashkil qiladi.

V.B.Bespalko birinchilardan bo'lib pedagogik tizim mohiyatini anglashga o'z izlanishlarida murojat etgan. Uning tushunchasida pedagogik tizim – pedagogik jarayonni boshqarishda vosita va metodlarini tizimlashtirish ketma-ketligini amalga oshirishdir. Pedagogik tizim – pedagogik jarayonni boshqarish tizimidir, dialektik miqdordan didaktik va tarbiyaviy jarayonga moslashuvdir, shu orqali pedagogik tizimning pedagogik jarayonda mukammal maqsadga yo'naltirilgan yo'sinda kechishini ta'minlaydi.

N.V.Kuzmina pedagogik tizim asnosida ko'pgina funksional tarkibiy qismlarni bir-biriga aloqadorligi va o'sib kelayotgan yosh avlod va kattalarni ta'lim va tarbiya maqsadlariga amal qilishi tushiniladi. N.V.Kuzmina «funksional tarkibiy qismlar» tushunchasini kiritib, pedagog va o'rganuvchi faoliyati jarayonida paydo bo'ladigan tarkibiy qismlarni izchil tadqiq qilishga diqqatni jalb etadi.

Hammaga ma'lum bo'lganidek, tizimli yondoshish metodologiyasida ikki fundamental kategoriya ko'prok yoritilgan – tizim va tarkib. Har xil yondoshishlarni tahlil qilishda, tizim chegaralangan ko'plab qismlar o'zaro aloqasi sifatida ko'rilsa, tarkib bo'lsa, o'zaro aloqalar mohiyati, ya'ni tizimni butunlikda ifoda etadi, biz xulosaga keldik, demak, pedagogik tizim nima (biz tomondan tadqiq qilyotgan jarayon hamdir), borliqdagi obyekt tizim tuzishda umumiy tashkillashtirish qonunlariga amal qiladi va umumiy ko'rinishda bir necha mustaqil tizim (bo'lak, qism, tarkib va tizim osti) va takribdan iborat bo'ladi. Shunday ekan, uzluksiz pedagogik amaliyot jarayoni talabalarda pedagogik tizim, biz tomondan tadqiq qilinayotgan, o'z ichiga, bir tomondan tizim ostidagi barcha tartib mohiyatini,



boshqa tomondan barcha tarkibdagi va barcha tartib mohiyatini o'z ichiga olishi lozim.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan falsafiy va pedagogik nuqtai nazarlar kategoriyasi tushunchalaridan «tizim» va «pedagogik tizim» kelib chiqib talabalarning uzluksiz pedagogik amaliyoti jarayonini pedagogik tizim sifatida tadqiq qilishni to'g'ri deb hisoblaymiz. Bu quyidagilarni anglatadi:

– birinchidan, uning tarkibiy mohiyati o'zaro aloqador tushunchadir;
– ikkinchidan, har bir tarkibiy qismni va tizimni vazifasini aniqlashga imkoniyat beradi;

– uchinchidan, boshqarish obyektini belgilash imkoniyatini beradi, boshqarish joyini, to'g'ri va qarama-qarshi aloqalar bilan bog'langanini, boshqarish bosqichlarida isbotlab beradi;

– to'rtinchidan, qarshiliklarni aniqlaydi va tasniflaydi, amaldagi belgilangan pedagogik tizimni;

– beshinchidan, pedagogik tizimning eng murakkab joyini aniqlashtiradi (talabani didaktik tayyorgarligida);

– oltinchidan, tashqi aloqa va munosabati qiymatini o'rnatadi va boshqalar.

Demak, belgilangan jarayonni tizim sifatida tadqiq qilsak, biz o'zimizdan kelib chiqib, pedagogik tizimning tarkibiy qismlarni tahmin qildik. Bu masalani yechimini topishda biz shundan kelib chiqdikki, zarurat mezonidan va yetarlilik qismdan, ularni yechimini topishdagi ketma-ketlilik va uni yo'g'ligidan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Адольф В.А. Формирования профессиональной компетентности будущего учителя. Педагогика-1997г-№1-с 72-75

2. Сериков Г.Н. Управление образованием; Системная интерпретация. Монография-Челябинск;1998.-664с.



O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHDA TARBIIYAGA OID MILLIY YONDASHUVLARNING AHAMIYATI

N.R.MASHARIPOVA,

*Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti doktoranti,
«Milliy tarbiya, mutafakkirlar va jadidlarning pedagogik ta'limotlari»
ilmiy tadqiqot bo'limi katta ilmiy xodimi, PhD*

Ushbu maqolada tarbiyaga oid milliy qadriyatlar o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qilishi ochib berilgan. Tarbiyaning shaxs kamolotidagi o'rni, tarbiyaning mazmuni, yo'nalishlari, tarbiyaviy sifatlarning tanqidiy fikrlashga ta'siri haqida ma'lumotlar, ilmiy tahlillar keltirilgan. O'quvchilarda tanqidiy fikrlash jarayonini sodir bo'lishida tarbiyaning shaxslararo munosabat, muloqot, hamkorlik omillari sintez vazifasini o'tashi ilmiy asoslangan. Ajdodlarimizning tarbiyaga oid tajribalari, ma'naviy merosiga urg'u berilgan.

Tayanch so'zlar: o'quvchi, tanqidiy fikrlash, tarbiya, ajdodlar merosi, milliy, axloq, aqli, ruhiy, jismoniy, milliy ong, xalq, muloqot.

This article reveals that national values related to education serve as an important pedagogical tool in the formation of critical thinking in students. Information and scientific analyses are presented on the role of education in personal development, the content and directions of education, the influence of educational qualities on critical thinking. It is scientifically proven that education plays the role of a synthesis of interpersonal relationships, communication, and cooperation factors in the process of critical thinking in students. Emphasis is placed on the educational experiences and spiritual heritage of our ancestors.

Key words: student, critical thinking, education, heritage of ancestors, national, morality, mind, spiritual, physical, national consciousness, people, communication.

Har bir davrda inson kamolotining asosi sifatida tarbiya muhim omil hisoblanadi. Har bir millatning farzand tarbiyasiga oid o'z qarashlari, yo'nalishlari, tajribalari, qadriyatlari mavjud. Shu bilan bir qatorda farzand tarbiyasi millatning o'ziga xosligini anglatib turuvchi mentaliteti, e'tiqodi, diniy tamoyillari, umuminsoniy prinsiplarga amal qilishi bilan ham bevosita bog'liqdir.

Insoniyat o'zining butun tarixiy taraqqiyoti davomida ma'naviy-axloqiy tarbiya doirasida ikkita muhim masalaga yechim izlagan:

birinchisi – haqiqiy inson qanday yashashi kerak;

ikkinchisi – qanday ezgu ishlarni bajarish, qanday harakatlardan tiyilish lozim. Bu masalaning yechimi o'zbek xalqi pedagogik tafakkurida ustuvor o'rin egallagan. Har bir shaxs ta'lim-tarbiya vositasida jamiyat hayotiga moslashtiriladi.



Chunki muayyan jamiyat hayotidagi barcha muammolarning yechimi ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk fuqarolarning fidokorona, halol mehnati, hamkorligi, imon-e'tiqodiga bog'liq.

Shaxsning rivojlanishi ta'lim-tarbiya mazmunini takomillashtirish bilan bevosita bog'liq. Shuning uchun ham tanlanadigan o'quv materiallar shaxsning ruhiyatini poklashga, ma'naviyatini yuksaltirish orqali o'zligini anglatishga, tanqidiy fikrlash yo'naltirishga xizmat qilishi lozim.

Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarga dunyoviy bilimlarni taqdim etish bilan bir qatorda ularni ruhiy-ma'naviy jihatdan kamol toptirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ajdodlarimiz ilmiy-badiiy merosi hisoblangan durdona asarlar, xalq o'zaki ijodi namunalari, dostonlar, maqom va suvoralar, tasviriy san'at asarlari ma'naviy-axloqiy tarbiya vositalari sanaladi. Ularda tarbiyaning quyidagi yo'nalishlari ustuvor sanalgan:

1. Ahloqiy tarbiya. Jamiyat a'zolarini or-nomusli, odob-andishali, o'z sha'ni qadrlaydigan, o'zgalarni hurmat qiladigan, g'ururli, pok, rostgo'y, xushmuomalalik kabi axloqiy ideallar asosida tarbiyalash.

2. Ma'naviy tarbiya. Insonparvar, mehnatsevar, diniy va dunyoviy bilimlarni o'rganishga qiziquvchan va shu asosda o'z dunyoqarashini boyitib boradigan, kasbu kor va hunar o'rganishga va o'z mehnati orqali rizqu ro'z topishga intiluvchi, vazifalariga ma'suliyat bilan yondashuvchi, milliy g'ururga ega, Vatanga sodiq xizmat qiluvchi, bunyodkor g'oyalarni ilgari suruvchi, mustaqil fikrlovchi barkamol inson etib tarbiyalash;

3. Ruhiy tarbiya. Iymon, e'tiqodli, o'z nafsini tiya oladigan, haromdan hazar qiladigan, o'z ong shuurini, hayollarni nazorat eta oladigan, yaxshilikka va ezigulikka intiluvchi, idrokli, qalban va ruhan pok inson qilib tarbiyalash;

4. Jismoniy tarbiya. O'z tanini va ongini toza tutadigan, turli zararli odatlardan yiroq, kam yeb, kam uxlaydigan, o'zi va o'zgalar sog'ligi e'tiborli, doimo badan tarbiya bilan shug'ullanib tanini sog'lom va baquvvat qiladigan, oziq-ovqatini halol, pok va foydali bo'lishiga e'tiborli, kuch-quvvatini yaxshi ishlarga sarflaydigan, Vatani, g'ururini o'z sha'nini himoya qilishga qodir etib tarbiyalash.

Ajdodlarimiz merosi xalqimizning uzoq asrlik urf-odatlari va qadriyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Ushbu ma'naviy qadriyatlarni o'z asarlari mazmuniga singdirganlar va ulardan tarbiya vositasi sifatida foydalanib kelganlar. Hayotbaxsh g'oyalar milliy ongning rivojlanishiga ta'sir qiladi. Shaxsning dunyoqarashini boyitadi. Ajdodlarimiz merosini o'qib-o'rganish o'quvchilarda ma'naviy sifatlarni, tanqidiy fikrlashini, mas'uliyatli qarorlar qabul qilishini ta'minlashga ko'maklashadi.



Ayniqsa, «Pandnomalar» o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda muhim didaktik vosita bo‘lib xizmat qiladi. «Muhabbatnoma», «Qutadg‘u-bilig», «Qobusnoma», «Guliston», «Bo‘ston», «Zarbulmasal», «Mahlub ul-qulub», «Axloqi Nopsiriy» kabi ajdodlarimiz tafakkurining mahsuli bo‘lgan mumtoz asarlar axloqiy tarbiya vositasi sifatida ko‘p asrlardan buyon yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishga xizmat qilib kelmoqda.

Tanqidiy fikrlash tarbiya bilan ham bevosita bog‘liq. Tanqidiy fikrlash muammoga yechim izlash, to‘g‘ri munosabatni yuzaga chiqarish deb qarajak, bu jarayonlarni amalga oshirish uchun insonda sabrlik, mulohazalilik, insoniylik, boshqalarning fikrini hurmat qilish, madaniyatli muloqotni amalga oshirish zarurati yuzaga keladi. Bu sifatlar esa tarbiya vositasida shakllantiriladi.

Tanqidiy fikrlash bir qator psixologik va pedagogik jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Idrok, intellekt, xotira, intuitsiya, hissiyot, sezgi, kabi psixologik jarayonlar tanqidiy fikrlashning obyektiv tuzulmasini shakllantiradi. Madaniyat, ma’naviyat, axloq, dunyoqarash, intellektual rivojlanganlik kabi pedagogik tushunchalarning mavjudligi tanqidiy fikrlashning subyektiv asoslarini tashkil etadi.

Shaxs aqlan fikr yuritish ya’ni tanqidiy fikrlashi uchun o‘zini eshitadigan, fikrini hurmat qiladigan sharoit va muhitda bo‘lishi muhimdir. Shunga tayangan holda o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda quyidagi tarbiyaviy jarayonlar muhimdir:

1. Shaxslararo munosabatlarga kirishish. Shaxslararo munosabatlarning amalga oshirilishi natijasida o‘quvchilarda shaxs sifatida rivojlanishi uchun qulay sharoit yuzaga keladi. Shaxslararo munosabatlar natijasida o‘quvchilarda muayyan nuqtai nazarlar, qarashlar, qadriyatli tushunchalar, imitatsiyalash, reflekiyalash yo‘nalishlari vujudga keladi. Shu bilan bir qatorda o‘quvchilarning ijtimoiylashuvi tezlashadi, o‘z pozitsiyasini egallashga, shaxs sifatida o‘zini namoyon etishga intilish kuchayadi. E’tiborli jihatlardan biri shuki, o‘quvchilarda shaxslararo munosabatlarga kirishish ko‘nikmasi juda yoshlikdan oila muhitida tashkil etilishi lozim. Oila a’zolari bilan munosabat ham shaxslararo munosabatlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘quvchilar ota-ona, aka-uka, opa-singil, yaqin qarindoshlar bilan o‘rnatiladigan munosabatlarga oila sharoitida tayyorlanadi. Bu qadriyatli shaxslararo munosabat bo‘lib, bunda o‘ziga xos xususiyatlarga, amal qilinishi lozim bo‘lgan qoida va an’nalarga tayaniladi. Shaxslararo munosabatlarning shakllanishi zamirida o‘quvchilarda bu munosabatlarni uzluksiz davom etishini ta’minlashga bo‘lgan intilish, munosabatlarni tahlil qilish, o‘z nuqtai



nazarini bayon etish, qadriyatli yondashuvni amalga oshirish, o‘zini va boshqalarni harakatlarini baholash kabi tanqidiy fikrlashni amalga oshiradi.

2. Muloqot va ijtimoiylashuv. Muloqot bu munosabatga kirishuvchilarning bir-birini eshita olish, tushunish qobiliyatidir. Shaxsda tanqidiy fikrlash shakllanishi uchun muloqot jarayoni muhim ahamiyatga ega. Muloqotning keng qo‘llanildigan turi bu savol-javob bo‘lib, bu oilada bola va ota-ona o‘rtasida muntazam olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Bola tomonidan savolning berilishi tanqidiy fikrlashning shakllanayotganidan dalolat beradi. Bu borada mutaxassislar savollarning oddiy yoki murakkabligi emas, balki, bolada savol berish vositasida ota-ona bilan muloqotga kirishishga intilish muhim ekanligini ta’kidlaydilar. Bolaning savol berishi atrof-olamga, narsa va hodisalarga qiziqishini, ularni qanday qabul qilayotganini, hoxish-istaklarini, intilishlarini belgilaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ko‘p savol berishi keyinchalik uning intellektual rivojlani-shiga va maktab davrida tanqidiy fikrlashga aylanadi. Agar bolalar savol bermasa, albatta ularni so‘rashga, o‘z kuzatuvlari, fikrlarini bildirishga o‘rgatish, muloqotga kirishish, ijtimoiy muhitga moslashishga ko‘maklashish lozim. Chunki ularda aqliy faoliyatning rivojlanishi bevosita muloqot va ijtimoiylashuv vositasida amalga oshiriladi.

O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda ham muloqot asosiy omil hisoblanadi. O‘quv jarayonida muloqotning eng faol turi – so‘rovga asoslangan ta’lim hisoblanadi. Bunda o‘quv jarayoni kognitiv tus olib, o‘quvchilarni ijodiy faoliyat olib borishga imkon yaratadi. O‘quvchilarni ijodkorlikka o‘rgatish bu tanqidiy fikrlashning muhim bosqichi bo‘lib, o‘quvchilar o‘zlari yaratgan ijod namunalari orqali o‘z g‘oyalari, iqtidorlarini, qarashlarini ifodalash imkoniga ega bo‘ladilar. Bunday ijodiy jarayonda o‘quvchilar to‘plagan bilim, ko‘nikma, malaka va tajribalarini qo‘llaydilar. Shuningdek ijodiy jarayon o‘quvchilarda o‘zaro hamkorlikni ham mustahkamlaydi. Shu asosda barcha o‘quvchilar bir-biridan o‘rganadilar, natijalar va tajribalarni almashadilar, bir-birini rag‘batlantirish, maqtash orqali qo‘llab-quvvatlaydilar. Munozara va mulohazalarni, o‘z tahlillari va baholarini ham taqdim qiladilar. Buning zamiridan o‘quvchilarda o‘zaro do‘stona munosabat hamkorligi asosida tanqidiy fikrlash rivojlanadi.

3. Hamkorlik qilish. Shaxslararo munosabatlar va muloqot jarayonining samarali kechishi munosabatga kirishuvchilarning o‘zaro hamkorligiga bevosita bog‘liqdir. O‘quvchilar oilada, ta’lim muassasasida, do‘stlari davrasida o‘zining tarafdorlari borligini his qilishi ularda o‘z fikri, g‘oyalari, qarashlari, nuqtai nazarlarini



ifodalashga va o'z pozitsiyasini egallashga imkon beradi. Hamkorlik – o'zaro munosabatga kirishuvchilarni bir-birini qo'llab-quvvatlashga, rag'batlantirishi, yon bosishga, e'tirof etishga, kamchiliklarni birga bartaraf etishga yo'naltiruvchi kognitiv jarayondir.

O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda hamkorlikning oila hamkorligi, o'quvchi-o'quvchi hamkorligi, o'qituvchi-o'quvchi hamkorligi kabi turli ahamiyatli hisoblanadi. Oilada ota-ona va farzand hamkorligi natijasida oilaviy qadriyatlar, an'analar, hurmat, e'zozlash, oilani qadrlash kabi tushunchalarning mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonuni.
2. O'zbekiston Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi «Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to'g'risida» №PQ-232- Qarori.
3. Edward M. Glaser. An Experiment in the Development of Critical Thinking. Columbia University, 1941.
4. Safarova R.G va boshq. Milliy tarbiyamiz xazinasidan durdonalar (Mutafakkirlar va jadid ma'rifatparvarlarining tarbiyaga oid qarashlaridan pedagogik jarayonlarda foydalanishga oid tavsiyalar). Metodik qo'llanma/ Toshkent: «Science and Innovation», 2024. - 96 bet.
5. R.G.Safarova. Darslik va o'quv adabiyotlari mazmuniga singdiriladigan sharq pedagogik tafakkuri durdonalari vositasida o'quvchi-yoshlarda «omnaviy madaniyat»ga qarshi kurashchanlik ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari. Qo'llanma. «Tafakkur» qanoti nashriyoti. Toshkent-2019. 199 bet.



TALABALARNING O‘QUV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Z.A.XOLMATOVA,

Qo‘qon DU Pedagogika kafedrası professorı, (DSc)

Ushbu maqola «XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar» masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, mazmunida ishning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti hamda amaliy ahamiyati o‘zaro bog‘langan holda to‘liq yoritilgan.

Kalit so‘zlar:

Данная статья посвящена проблеме преподавания методики развития учебно-познавательной деятельности учащихся «Образование, школа и педагогические идеи в Туркестанском крае в конце XIX - начале XX вв.» Содержание выпускной квалификационной работы в полной мере отражает цель, задачи, объект и предмет работы, ее практическую значимость во взаимосвязи.

This thesis is devoted to the issue of teaching the methodology for developing students' educational and cognitive activities in teaching the module «Education, school and pedagogical ideas in the Turkestan region at the end of the 19th and beginning of the 20th centuries» of the General Pedagogical Science, and the content of the graduation thesis fully covers the purpose, objectives, object and subject of the work, and its practical significance in an interconnected manner.

O‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda ma’naviy-axloqiy odatlarni shakllantirish, ma’naviy-axloqiy tajribalar asosida tarbiyalashning zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalardan foydalanishning tatbiqiy asoslarini va ulardan foydalanish samarali yo‘llarini ishlab chiqish ta’lim turlari oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Ta’lim sohasidagi islohotlar yosh avlodning bilimli, mustaqil va erkin fikr yuritadigan, ongli intizomga ega bo‘lgan shaxs bo‘lib shakllanishini nazarda tutadi.

Mustaqillik yillari davomida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma’naviyat yegalari yetib tarbiyalash, shu maqsadda ta’lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Ta’lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o‘qitish metodlari, ta’lim standartlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yangilash zarurligi, bilim berishda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish, tarbiyada yesa milliy an’ana va qadriyatlarga suyanish muhimligi qayd yetildi.

XXI asr aql-zakovat, ma’naviyat va bilimdonlik asri bo‘ladi. Shuning uchun



ham bu asr jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida tub islohotlar qilish davr talabiga aylanib bormoqda. Bu tub o'zgarishlar, avvalo, yoshlar tarbiyasiga ularning barkamol avlod bo'lib shakllanishiga qaratilgan. Bu vazifalarni amalga oshirishda pedagogika fani o'ziga xos o'rin tutadi.

Jamiyatda olg'a siljishlar bo'lishi Pedagogika fani yutuqlarisiz juda qiyindir. Pedagogika fanini hamma, ayniqsa, pedagoglik ishini o'ziga kasb qilib olgan kishilar ham nazariy, ham amaliy jihatdan puxta o'rganishlari lozim.

Har bir mustaqil fan o'zining predmeti va metodologik asoslariga ega. Pedagogika fan sifatida shakllanishi yosh avlodni hayotga tayyorlash, ular tarbiyasini samarali amalga oshirish ehtiyojidan kelib chiqadi.

Avvalo pedagogikaning ilk bosqichlari falsafa negizida paydo bo'ldi. Falsafa qadim zamonlardan boshlab davr, hayot mazmuni, insonning jamiyatdagi o'rni va hayotda belgilangan vazifasi nimalardan iborat degan savollarga javob izlash bilan shug'ullangan.

Tarbiya jamiyat vazifasi bo'lib, u turli tarixiy davrlarda aniq shaklga ega bo'ladi. Ko'p vaqtlar pedagogika ilmiy fan sifatida faqat o'sib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasini o'rganadi, deb qaralgan. Ammo hayot amaliyoti tarbiyaning umumiy prinsiplari uzluksiz faqat yoshlar tarbiyasiga emas, balki kattalar tarbiyasiga ham taalluqli ekanligini ko'rsatdi. Shuning uchun ham keyingi paytlarda «pedagogikani yosh avlodni va katta yoshdagi odamlarni tarbiyalash va o'qitish, ularga ma'lumot berish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan», deb belgilash odatga aylandi. Zamonaviy pedagogika ta'lim-tarbiyaning maqsadi va vazifalari, davlat ta'lim standartlari, ta'lim-tarbiyaning usullari, tashkil etish shakllari, qonuniyatlari haqida ma'lumot beradigan fandır.

Tarixga nazar tashlar ekanmiz, tarbiya haqidagi g'oyalalar eramizdan oldin VI asrda shakllanganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Keyingi davrlarda pedagogik g'oyalarning shakllanishida Zardushtiylik ta'limoti, uning muqaddas kitobi «Avesto»da qimmatli fikrlar talqin etilgan. Islom ta'limotning haqidagi g'oyalarning ahamiyati kattadir. Qur'oni karim va xadisi shariflarda, musulmon axlining dunyo qarashi, falsafasi, ma'naviyati, axloqi, e'tiqodi. Har tomonlama barkamolligi kabi insoniy sifatlarni shakllantirish yo'llari bayon qilingan.

Pedagogikaning rivojiga IX-XVI asrlar (Sharq uyg'onish davri)da yashab ijod etgan Al-Buxoriy, At-Termiziy, Abu Nosir Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Bohouddin Naqshbandiy, Mirzo Ulug'bek, Mir Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk daholar, XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakatining yirik namoyondalaridan Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Saidahmad Siddiqiyalar, Ovro'pa davlatlarining buyuk mutafakkir va pedagog olimlaridan Yan Amos Komenskiy,



Jan Jak Russo, I.G. Pestolotsi, Adolf Disterveg, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, J.Lokk, J.Dyui, Edvard Torndayk, S.T.Shatskiy, B. Blumlar ulkan hissa qo‘shdilar. Ularning pedagogika nazariyasiga oid fikrlaridan fanda unumli foydalanilmoqda va shu barobarida pedagogika fani yangi g‘oyalari evaziga boyimoqda.

XX asr boshlarida yangi bilim sohasi-yangiliklarni kiritish, qo‘llash yuzaga keldi. U mahsulot ishlab chiqarish sohasida texnik yangiliklarni kiritish qonuniyatlarini o‘rgana boshladi. Yangiliklarni kiritish haqidagi fan – innovatika – firmalarning yangi reja, xizmatlarni ishlab chiqish va tatbiq etish faoliyatiga talablari keskin oshib borishi aks ettirilgan holda paydo bo‘ldi. Pedagogik innovatsion jarayonlarni G‘arbda 50-yillar oxirlaridan boshlab bizning mamlakatimizda keyingi 10 yillikda olimlar maxsus o‘rgana boshladilar.

Bizning mamlakatimizda pedagogik innovatsiyaning rivojlanishi keng jamoatchi-pedagoglar harakati maktabning tez rivojlanishiga bo‘lgan talab va uni pedagoglar amalga oshira bilmasliklari o‘rtasidagi yuzaga kelgan qarama-qarshiliklar bilan bog‘liq. Yangiliklarni qo‘llash umumiylik kengaydi. Shu sababli yangi bilimlarga bo‘lgan talab, yangi «yangilik», «yangi innovatsiya», «innovatsion jarayon» tushunchalarini anglash talabi keskinlashdi.

Dars mashg‘ulotlari uzluksiz ta’limda innovatsion texnologiyalar, interfaol o‘qitish usullaridan, o‘yinli texnologiyalardan keng va samarali foydalangan holda amalga oshirilsa, talabalarda faol va mantiqiy fikrlash qobiliyati, aqliy qobiliyati rivojlanadi. Interfaol o‘qitish usullarida talabalar o‘quv jarayonining markaziy figurasi bo‘lib, bunda o‘quv jarayoni talabalar extiyojidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. O‘qitish usullarini o‘zaro bog‘lab mashg‘ulot tashkil etilsa talabalar tomonidan uni o‘zlashtirish samarali bo‘ladi.

Ta’lim-tarbiya ishlari jarayonida talabalarni ijodiy fikrlashga, o‘zgaruvchan vaziyatlarga o‘rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda ularning mashg‘ulotlarda pedagogik texnologiyalardan foydalana olishi muhimdir.

Hozirgi kun o‘qituvchisi innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan birga axborot kommunikatsion texnologiyalardan uzluksiz samarali foydalana olishi lozim. Hozirgi kunga kelib, kompyuter savodxonligi madaniyatning muhim belgisiga aylanib ulgurdi, kelajakda esa u har bir insonga qayerda, qaysi uchastkada ishlamasin zaruratga aylanadi. Demak, kompyuter ishi, kompyuterdan foydalanishga o‘rgatish eng yaqin vaqt ichida umumiy ishga aylanishi shubhasiz.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining vositalari qatoriga: kompyuter, skaner, videoko‘z, videokamera, LCD proyektor, interaktiv elektron doska, faks modem, telefon, elektron pochta, multimedia vositalari, Internet tarmoqlari, mobil aloqa tizimlari, ma’lumotlar omborini boshqarish tizimlari, sun’iy intellekt tizimlarini kiritish mumkin.

Xulosa qilib aytganda fanlarni uzluksiz o‘qitishda innovatsion pedagogik va



axborot texnologiyalaridan foydalanish hozirgi kunning muhim talabi bo'lib, oliy va kasb-xunar ta'lim tizimida muammoli o'qitish; tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi texnologiyalar; rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari; o'yinli texnologiyalar; o'qitishning tabaqalashtirilgan va individual texnologiyasi; programmalashtirilgan o'qitish texnologiyasi; kompyuter-axborot texnologiyalari kabi turlari keng qo'llanilmoqda.

Talabalarda ijodiy fikrlashga, o'zgaruvchan vaziyatlarga, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etishga o'rgatish, hamda ularning mashg'ulotlarda axborot texnologiyalari, elektron darsliklar, versiyalar va multimediyalardan foydalana olishini yo'lga qo'yish lozim. Bu esa talabalarda mustaqillik, erkin fikrlashni tarbiyalash, o'quv faoliyatini tahlil qilish, istiqbolda kasbiy mahorat va kompyuter savodxonligini o'rttirish ularning uzluksiz ichki ehtiyojiga aylantirilishini talab etadi.

Hozirgi kun o'qituvchisi innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan birga axborot kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalana olishi lozim. Pedagogik faoliyatda amaliy dasturiy vositalardan foydalanish, MS Office dasturlarida elektron o'quv-metodik materiallarni yaratish usullari (Microsoft Word, Yexcel, Power Point va b.)ni har bir o'qituvchi bilishi zarur bo'lib qoldi. Bu narsa pedagogika fanlarini o'qitishda ham samarali bo'lib, ta'lim sifatini oshishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. «O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi» Toshkent-2022 O'zbekiston nashriyoti <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. -T.: Fan, 2007.
3. Bepalko V.P. Pedagogika i progressivniye texnologii obucheniya, M., 1995.
4. Voinova M.G. Pedagogicheskiye texnologii i pedagogicheskoye masterstvo. - T.: «ITISOD-MOLIYA», 2006.
5. N.M.Egamberdieva. «Pedagogikaning taraqqiyot tendentsiyalari va innovatsiyalari» moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. T.,2016, 32 b



GENDER YONDASHUV ASOSIDA YOSHLARNI OILAVIY MUNOSABATLARGA TAYYORLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

SH. O. ARIPOV,

Farg'ona davlat universiteti

p.f.b.f.d (PhD) Pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi

Ushbu maqolada bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblangan o'smir yoshdagi o'quvchilarni gender yondashuv asosida oilaviy hayotga tayyorlash, jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarni yoshlar ongiga salbiy ta'siri va oiladagi munosabatlarga doir qarashlari haqida so'z brogan.

Tayanch so'zlar: *gender tenglik, yoshlar, oilaviy munosabatlar, xususiyatlar, jamiyat, davlat, qarashlar;*

В данной статье рассматривается подготовка учащихся подросткового возраста к семейной жизни на основе гендерного подхода, негативное влияние изменений, происходящих в обществе, на сознание молодежи и их взгляды на семейные отношения, что считается одной из актуальных проблем сегодняшнего дня.

Ключевые слова: *гендерное равенство, молодежь, семейные отношения, особенности, общество, государство, взгляды;*

This article discusses preparing adolescent students for family life based on a gender approach, the negative impact of changes in society on the minds of young people, and their views on family relationships, which are considered one of the most pressing issues today.

Key words: *gender equality, youth, family relations, characteristics, society, state, views*

Jahon miqyosida oilaviy munosabatlar farovonligi davlatning milliy xavfsizligi, mamlakatda innovasion taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishning sharti sifatida qaralmoqda. YuNESKO tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha xalqaro ta'lim konsepsiyasida «ijtimoiy institutlarning ta'limiy, madaniy va ma'rifiy salohiyatini rivojlantirish, hamkorlik qobiliyatlari va qiziqishlarini kuchaytirish» dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Yaponiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Gresiya kabi davlatlarda shaxsning shakllanishi va tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadigan eng muhim ijtimoiy institut bu oila ekanligi ta'kidlanib, oilaviy munosabatlar – avloddan-avlodga meros bo'lib o'tadigan an'analar, urf-odatlar, qadriyatlarining uzviyligini saqlaydigan ijtimoiy-madaniy amaliyotning asosiy tashuvchisi sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, ilg'or tajribalar umumiy o'rta ta'lim maktablarida



o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlar samaradorligini oshirishni taqozo etadi.

Jahonda gender yondashuv asosida o'smirlarda madaniy immunitetni shakllantirish, ular o'rtasida jinoyatchilik, o'z joniga qasd qilish va ijtimoiy me'yorlardan og'ishning oldini olish, milliy va ma'naviy qadriyatlarni egallash hamda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvni ta'minlashning kreativ modellari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Janubiy Koreyaning Incheon shahrida o'tkazilgan Butunjahon forumida qabul qilingan 2030-yilga qadar rivojlanish deklarasiyasida «o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'zlarining gender rollarini farqlash va gender rollarni o'zlashtirish ko'nikmasini jadal rivojlantirish, madaniy immunitetni tarkib toptirish» qayd etilgan bo'lib, o'smir yoshdagi o'quvchilarda «ommaviy madaniyat»ga qarshi immunitetni shakllantirish, o'quvchilarning madaniy immunitetini shakllantirishda hayotiy vaziyatlarni imitatsiyalash, intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, gender ijtimoiylashuvni ta'minlashga qaratilgan tizimli ishlar olib borilmoqda.

Zamonaviy oilalarning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlariga to'xtalar ekanmiz, unda hozirgi vaqtda bugungi yoshlarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning o'ziga xos ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari, zamonaviy rivojlanish xususiyatlariga ega ekanligi ko'zga tashlanadi. Shunday ekan bugungi yoshlarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning o'ziga xos ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarini anglab yetishi, o'ziga xoslikning ota-onalar birinchi bo'lib yoshlarga ibrat-na'muna sifatida o'z faoliyatlarida buni inobatga olishsa, tarbiyaviy imkoniyatlarini oshirishga yordam bergan bo'lar edilar. Bugungi zamonaviy yoshlarni oilaviy munosabatlar rivojining o'ziga xosliklaridan biri – bu shahar va qishloqdagi oilalarning ijtimoiy hayot tarzidagi farqda namoyon bo'ladi.

Hozirgi davrda jamiyatdagi yangilanishlar kishilarning turmush tarzida ham o'zgarishlar yasamoqda. Hayotda nikohlarning buzilishi kabi salbiy holatlar yuz bermoqda. Bular, odatda, oila yuritishga ham moddiy, ham ma'naviy tayyor emaslik, pedagogik-psixologik savodsizlik, oila xo'jaligini yuritish malakasiga ega bo'lmaslik, yosh oilalarning ota-onaga qaram bo'lib turishi, tekinox'rlk, ma'naviy qashshoqlik sababli paydo bo'lmoqda.

Yosh avlodni komil inson darajasida tarbiyalash, ularni oilaviy hayotga tayyorlash, oilaga xos milliy an'analarning afzalligi, foydasi, oilaning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida Sharq va G'arb xalqlari mutafakkirlari, yozma va og'zaki ijod namoyondalari o'z asarlarida bebaho fikrlarni bayon etganlar. Hozirgi davrda oilaning milliy an'analari, qadriyatlar, ma'naviyati va madaniyati namunalari



taʼriflash va ularni hayotga tadqiq etish bilan faylasuflar, siyosatshunoslar, tarixchilar, pedagoglar, psixologlar va boshqa fan soha olimlari shugʻullanib kelayptilar. Oila mavzusi mustaqillik yillarida ilmiy-tadqiqot ishlarining bosh mavzusi boʻldi. Uning turli qirralari yoritilib, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlash bosh muammolardan biriga aylandi. A.Q.Munavvarov, Gʻ.B.Shoumarov, V.M.Karimova, O.Musurmonova, M.Inomova, M.Xolmatov, N.M.Nagmetova-lar ilmiy-tadqiqot ishlarida bu muhim muammoni tadqiqot obyekti qilib belgilab, ular mazkur yirik muammolar tarkibida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda yangi mazmun, yangi uslublar kashf etdilar.

Masalan, A.Q.Munavvarovning «Oila pedagogikasi» monografiyasida oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda milliy anʼanalar va anʼanalarining ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyati, oʻzbek oilalarining yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlash uslubi va taʼsir koʻrsatish vositalari, ayniqsa, bolalarga hunar oʻrgatishda oʻzbek xalqining oʻziga xos tajribalari yoritiladi. Shuningdek, hozirgi davrda oʻzbek oilalaridagi tarbiyaning oʻziga xos xususiyatlari (bitta yoki kam bolali, koʻp bolali oilalarda bola tarbiyasi) va oilaviy tarbiyani takomillashtirish omillari hamda vazifalarini belgilab beradi.

M.Inomova tadqiqotlarida esa oila va oilaviy tarbiya, bolalarni maʼnaviy-axloqiy tarbiyalash va unda milliy qadriyatlardan foydalanish masalasini milliy istiqloq sharoitida xalq etishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati va uning asosiy mezonlari tadqiq etilgan.

O.Musurmonovaning «Oila maʼnaviyati: milliy gʻurur» mavzusidagi oʻquv qoʻllanmasida esa oila tarbiyasi milliy gʻurur darajasida qaralib, oilaning jamiyat tayanchi, asosiy burchi va vazifalari, oilaviy munosabatlarning milliy va umuminsoniy asoslari, mehnatning inson koʻrki va oila farovonligining negizi ekanligi, marosimlar – maʼnaviy qadriyat ekanligini asoslaydi.

Ota-ona qanchalik yuqori maʼlumotga ega boʻlsalar ularning bolalari taʼlim muassasasida shunchalik muvafaqqiyatli oʻqishadi. Zamonaviy ota-onalar maʼlum kasb yoki hunar egalari boʻlib, bolalarning tarbiyasini butunlay bobo va buvilarga topshirib qoʻyishgan. Koʻp holatlarda katta avlod vakillari hamda yosh ota-onalar tomonidan bolalar tarbiyasini tashkil etishda qoʻllaniladigan metodlarning biriga mos kelmasligi bu jarayonda turli ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

Ayni oʻrinda shuni ham aytib oʻtish joizki, oilaviy hayotga qadam qoʻyayotgan yoshlarning barchasi ham bu borada yetarlicha pedagogik bilimlarga ega emas. Shuningdek milliy qadriyatlar va udumlar asosida oʻz xoxishlari bilan emas,



ota-onalarning ko'rsatmasi bilan oila qurish hollari ko'zga tashlanadi. Bu esa hozirgi zamon ota-onalarni kerakli o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash, mazkur adabiyotlarni o'qib-o'rganishni ular orasida keng tashviqot etishni talab etadi. Oila qurish uchun bugungi hamma yoshlar ham yetarlicha ma'lumotga ega emas va oila qurish. Uni barqarorligini saqlashga tayyor emaslar.

Zamonaviy taraqqiyotning tezkorligi, shuningdek, «ommaviy madaniyat» nomi ostida targ'ib etilayotgan g'oyalarning turli mintaqalar hududiga keng yoyilayotganligi tufayli bugungi kunda bo'lajak ota-onalarni oila tarbiyasiga tayyorlash va uni tashkil etishda avvalgidek yuqori samaradorlik ko'zga tashlanmayapti. Natijada oilaviy ajralishlar juda ko'payib ketmoqda. Shu sababli oilashunos olimlar oila tarbiyasi samaradorligini oshirish borasidagi tavsiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etishga jiddiy e'tibor qaratmoqdalar.

Axloq barcha insoniy munosabatlarning asosi bo'lganligi sababli ijtimoiy tarbiyani negizida yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga alohida e'tibor qaratsa, ijtimoiy-pedagogik munosabatlar ijobiy tomonlarga yo'naltirilsa, jamiyatga kirib kelayotgan yoshlar orasida oila qurishga tayyorgarlik ijobiy holatda bo'lgan bo'lar edi. Pedagogik manbalardan birida oiladagi munosabatlarga to'xtalib shunday deyiladi «Ijtimoiy-axloqiy me'yorlar mazmunidan xabardor etish, ularga axloqiy me'yorlarning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish, ularda ijtimoiy-axloqiy me'yorlar (talab va ta'qiqar)ga nisbatan hurmat hissini qaror toptirish asosida axloqiy ong va madaniyatni shakllantirish maqsadi ko'zlanadi».

Yuqoridagi fikrga tayangan holda shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, oilada yoki ta'lim muassasalarida bo'lishidan qat'iy nazar ma'naviy-axloqiy tarbiya quyidagi yo'nalishlarda tashkil etiladi:

- 1) bolalar ongida odob, axloq va axloqiy sifatlar kabi tushunchalarni shakllantirish;
- 2) mavjud nazariy tushunchalar asosida bolalarda muayyan ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish;
- 3) bolalarda ijtimoiy va tabiiy borliqqa nisbatan ijobiy axloqiy munosabatni shakllantirish.

«Ota-onalar oila sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiyani uyushtirishda bolalarning eng oliy axloqiy sifatlar – ota-onani hurmat qilish, oilaning katta yoshli a'zolariga g'amxo'rlik ko'rsatish, atrofda g'ilarga mehr-muhabbatli bo'lish, kattalarni izzat qilish, to'g'riso'zlik, mehnatsevarlik, kamtarlik, insonparvarlik, ornomus, g'urur, vijdon, saxiylik, har qanday jarayonda ham adolatli bo'lish,



intizomlilik, ijtimoiy faollik, chin fuqarolik, oilaparvarlik va boshqalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratishlari lozim».

Respublikamiz olimlari ushbu masalaning asosiy jihatlariga to'xtalar ekan, Akademik X.Ibraimov muallifligida yozilgan ota-ona murabbiy nomli uslubiy qo'llanmada «besh daqiqanming bahosi» degan mazmunda bola tarbiyasiga to'xtalar ekan, shunday takidlaydi: «Bunga besh daqiqa vaqt ketadi. Bu besh daqiqa juda qimmat turadi. Mana shu besh daqiqa balki qanchalar farzandlarimizni jinoyatdan, xiyonatdan saqlab qolar? Tarbiya usullarini bilmaydigan nodon ona bir umr javrab, bolasini o'zidan begonalashtirib, natijaga erishmay o'tadi. Bir umr «Bolam qayerda, nima qilayapti ekan-a?», degan xavotirda yashaydi. Chunki bolasidan ko'ngli to'q emas. Chunki o'rgatmagan. Oqila ona esa ana shu besh daqiqani oltin daqiqalarga aylantiradi. Kafolatli natijaga erishib, bir umr xotirjam yashaydi. Chunki hech bir bola yomon bo'lib tug'ilmaydi. Yomon bo'lishiga biz - kattalar aybdormiz. Aniqrog'i – bizning tarbiya usullarini bilmasligimiz va qo'llamaganimiz sabab» deb keltirib o'tilgani ham bejiz emas.

M.X.To'xtaxodjayeva shunday deydilar: «Shaxsda mazkur sifatlarning qaror topishida oiladagi sog'lom muhit, oila a'zolarining psixologik jihatdan o'zaro yaqinliklari, ehtiyoj, qiziqish va hayotiy yondashuvilaridagi umumiylik, bir-birlarini har qanday vaziyatda qo'llab-quvvatlay olishlari, ota-onalar tomonidan barcha farzandlariga nisbatan qo'yilayotgan talablar, shuningdek, ularga ko'rsatilayotgan e'tiborning bir xil bo'lishi oila tarbiyasida ijobiy natijalarga erishishning omillari sanaladi. oilada muayyan an'ananing qaror topganligi, unga oila a'zolari tomonidan bildirilayotgan hurmat, shuningdek, keksa avlod vakillarining shaxsi, ularning ijobiy sifatlari, mehnatda erishgan (garchi u oddiy bo'lsa ham) yutuqlari, atrofdegilar bilan munosabati borasidagi suhbat yoki xotiralarning tashkil etilishi bolalarda hayotiy e'tiqodning shakllanishini ta'minlaydi».

Ma'naviy-axloqiy tarbiya negizida vatanparvarlik tarbiyasi, uni tashkil etish ham muhim o'rin tutadi. Vatan mustaqilligiga erishish qanchalik qiyin bo'lsa, uni himoya qilish, mustaqillikni saqlab qolish ham shunchalik murakkab jarayondir. Shunday ekan ota-onalar, eng avvalo, o'z farzandlari ongiga vatanparvarlik va insonparvarlik tushunchalarini singdira olishlari lozim bo'ladi. Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat, unga sadoqat, o'ziga mansub bo'lgan millat o'tmishi, urf-odatlari, an'analari, qadriyatlariga sodiqlik; vatan va millat tarixidan g'ururlanish; yurtning moddiy, shuningdek, millat tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklarini asrash, ularni ko'paytirish borasida g'amxo'rlik qilish, vatan va millat obro'si, sha'ni, or-



nomusini himoya qilish, yurt ravnaqi va millat taraqqiyotiga ishonish g'oyalari doimiy singdirib borilishi lozim.

Ota-onalar oiladagi suhbatlar jarayonida odob, axloq, axloqiy me'yor, axloqiy ong, axloqiy munosabat va axloqiy e'tiqod nima ekanligini bolalarga tushuntirib borishlari lozim. Shuning bilan birga oilada aqliy tarbiyani tashkil etish ham muhim ahamiyatga egadir. Ota-onalar oila muhitida aqliy tarbiyani samarali tashkil etishga e'tibor qaratar ekan, asosiy maqsad yoshlarni ilm-fan, texnika va texnologiya sohasida erishilayotgan yutuqlar, yangilik va kashfiyotlardan xabardor qilish, ijtimoiy va tabiiy fanlar bo'yicha bilimlarni berish orqali ularda tafakkur, dunyoqarashni rivojlantirishdan iborat ekanligini nazarda tutishlari lozim.

Ota-ona yoki oilaning boshqa a'zolarining dunyoqarashi, ehtiyoj va qiziqishlari doirasi hamda ular tomonidan ko'rsatilayotgan namuna muhim tarbiyaviy omil bo'lib xizmat qiladi. Bugungi yoshlarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning o'ziga xos ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari haqida achinib shuni aytmoqchimizki, oila bu jamiyatning muqaddas bir bo'lagi va uni e'zozlash barchaning asosiy vazifasidir. Oila muhitida bugungi yoshlarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning o'ziga xos ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari ko'p jihatdan yoshlarning aqliy va ma'naviy yetuklikka yo'naltirish muhim bo'lib, ular hayotida yangi-yangi imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi «Ta'lim to'g'risida»gi O'RQ-637-son Qonuni. <https://lex.uz>
2. Xudayqulov X.J. Rasulova Z. Oila pedagogikasi. Darslik. - T.: «Innovatsiya-ziyo». 2022 y.
3. Safarova R.G. va b. O'quvchi-yoshlarda «ommaviy madaniyat»ga qarshi kurashchanlik ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari. - Monografiya. - T.: «Tafakkur qanoti» nashriyoti, 2018 yil, 192 bet.
4. Tojiboyeva X.M. "Gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarda «ommaviy madaniyat»ga qarshi immunitetni shakllantirishning pedagogik strategiyalari»// Monografiya. - Toshkent: «Tafakkur qanoti» nashriyoti, 2021. - 208 bet.
5. Aripov Sh.O. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning pedagogik tizimi// pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)... dis. - Farg'ona, 2023. 133 bet.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KOMPOZITSION BADIY-ESTETIK DIDINI TARBİYALASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

M.I.XUDAYBERDIYEV,
Qori Niyoziy nomidagi TPML
tayanch doktoranti

Ushbu maqolada hozirgi davr tasviriy san'at ta'lim tizimida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy-estetik didini, tarbiyasini, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni va ahamiyatiga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Tarbiya, ta'lim, ijodkorlik, badiiy-estetik did, raqamli texnologiya.

This article focuses on the role and nature of digital technologies in the development of artistic and aesthetic taste, instruction of future fine art teachers, teaching of future fine art teachers, instructions of future fine arts.

Key words: *upbringing, education, creativity, artistic-aesthetic taste, digital technology.*

Bugungi kunda yangi pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi natijasida ta'lim tizimida ratsional ishlab chiqilgan va olib borilayotgan o'qitish jarayoni an'anaviy darslardan farqli o'laroq yangicha interfaol usulda o'tilmoqda. Yosh avlod ushbu o'zgarib turgan ijtimoiy voqelikni, jadal rivojlanib borayotgan fan yangiliklarini to'g'ri va to'liq o'zlashtirishida ta'lim tarbiyaning ahamiyati katta. Ta'lim-tarbiya, avvalo, yoshlarga hayoti davomida muhim ahamiyatga ega bo'lgan mustaqil fikr yuritish asoslarini o'rgatadi. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar pedagogik faoliyatning ajralmas qismiga aylangan. Ayniqsa, tasviriy san'at, dizayn va kompozitsiya badiiy-estetik didni rivojlantirishga qaratilgan fanlarda bu texnologiyalar nafaqat bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining bilim doirasini kengaytiradi, balki ularning ijodiy fikrlashini, tasviriy ifoda vositalarini, estetik qarashlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining ijtimoiy pedagogik foliyati kasbiy mahorat rivojlanishida muhim o'rinni bajaradi. Bu faoliyat qancha mazmunli va keng bo'lsa, shuncha uning samaradorligi oshadi. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'z o'quv predmetini davr talablari asosida bilishi pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo'lishi, hamda insoniylik, izlanuvchanlik va fidoyilikni o'zida tarkib toptirishi lozim. Bu qobiliyatlar kelgusi pedagogik faoliyatida juda muhim hisoblanadi. Maktabda ta'lim tarbiya berish jarayonida o'zidagi komepetensiyalar mukammal darajada, zamonaviy tarzda rivojlantirib borsa o'quvchilarning ham



fanga qiziqishi va o'zlashtirishi ham yuqori darajada bo'ladi. Bunda asosiy figura albatta o'qituvchi hisoblanadi. O'qituvchi ish faoliyatiga qadar OTMdagi tahsil jarayonida toblangan va tayyor bo'lmog'i lozimdir. Zamon talablariga doimiy ravishda o'zini moslab borishi kerak. Shu jihatdan A.M.Karavaeva takidlaganidek, axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish nafaqat o'quvchilarning rivojlanishini qo'llab quvvatlabgina qolmay, balki ularning ta'limga bo'lgan motivatsiyasini, o'qishdagi o'zaro ta'sirini ham oshiradi[3].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda rassom-pedagoglarning zamon talabiga mos ravishda rivojlanishi bu ta'lim natijadorligini yuqoriga olib chiqishiga katta xissa qo'shadi. Shunday ekan bugungi kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib borayotgan vaqtda va har bir sohaning zamon bilan hamqadam odimlashini taqozo etmoqda.. Bu esa o'z o'zidan zamonaviy raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayanodagi o'rnini ko'rsatmoqda. Bu texnologiyalarning zamonaviy san'at sohasidagi ko'rinishlari sifatida - raqamli platformalar, grafik dizayn dasturlari, virtual reallik vositalari, raqamli kollaj va montaj vositalari orqali san'at asarlarini yaratish o'quvchilarga o'z g'oyalarini ifoda etishda keng imkoniyatlar yaratadi. Bu esa o'z navbatida kompozitsion badiiy-estetik didni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Zamonaviy tadqiqot va ishlanmalar hozirda turli fanlarni o'qitishda faol foydalanilmoqda. San'atshunoslik fanlari nomzodi L.A.Molchanovanning ta'rifiga ko'ra "San'atdagi innovatsiya - bu tadqiqot, ishlanma, yangi yoki takomillashtirilgan badiiy yechim, uni san'atda qo'llash orqali jamoatchilik e'tirofiga intilish natijasidir[4]" deb bejizga aytmagan.

Talabalarning rasm chizishga qiziqishini oshirishda intellekt darajasi qobiliyatini aniqlashga qaratilgan turli metodik usullardan, nostandart testlardan foydalanish ham mumkin. Bu kompyuter vositalari orqali amalga oshiriladi. Bunda testli vazifalar faqat so'zlar ifodasi emas, balki animatsiyali lavhalar ko'rinishida bo'ladi. Raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarda darsni tushunish, ma'lumotlarni tez qabul qilishi ta'minlanadi.

Raqamli texnologiyalar yordamida talabalarga tasviriy san'at asarlarini keng va yaxlit idrok etish uchun imkon beradigan mashg'ulotlarga ko'proq e'tibor qaratiladi. Kompyuterlar orqali tasviriy san'at asarlarini tahlil qilish, muzeylar va galereyalar bo'ylab virtual sayohatlar uyushtirishda har xil ovozli matnlar, musiqa, animatsion bezaklardan foydalanish bilan real hayotdagidek ko'rish imkoniyatiga erishiladi. Tasviriy san'at, dekorativ san'at, adabiyot, musiqa va unuman olganda,



badiiy ijodkorlikda raqamli texnologiyalarning o‘zaro bog‘liqligini amalda sinash talabalarning dars mashg‘ulotlarida faol ishtirokini jonlantirishga xizmat qiladi. Ta‘limning raqamli texnologiyalar bilan o‘zaro bog‘liqligi talabalarning bilim olish va san‘atga qiziqishlarini oshiradi. Yangicha ta‘lim usullari ta‘sirida o‘quvchilar keng fikrlash, tasavvur qilish orqali asoslash, amaliyotga tadbiiq etish vositasi sifatida munosabatda bo‘lish ko‘nikmalari rivojlanadi. Bu asosida talabalarning tasviriy san‘atga qiziqish hissi shakllanib, mustaqil ijodkorlik tajribasi ham ortadi. Yangi avlod multimedia texnologiyalari bilan faol shug‘ullanganda talabalaridagi san‘at asarlarini idrok qilish tezroq rivojlanadi.

Tasviriy san‘at dars mashg‘ulotlarida raqamli texnologiyalarning faol qo‘llanilishi natijasida hozirgi zamon talabalarining tasavvur qilishi hamda badiiy tarzda his etish holati rivojlanadi. Yangi pedagogik texnologiya nazariyasi g‘oyalardan foydalanish asosida tashkil etilgan tasviriy san‘at darslari yuqori malakali mutaxassisni tarbiyalashda yetakchi o‘rinni egallaydi. Jumladan, o‘qituvchilarning shaxsan o‘zi kompozitsiya yaratish jarayonini amalda ko‘rsatib, amaliy mashg‘ulotlarning qiziqarli o‘tishiga erishmoqdalar. Shunday qilib, hayotimizdagi yangi shart-sharoitlaridan kelib chiqib, o‘quv jarayonida kompyuter vositalari va raqamli texnologiyalardan foydalanishni axborot hajmining ko‘payib ketganligi, jamiyatdagi ilmiy-texnologik rivojlanish bilan izohlash mumkin.

Shu jixatdan kelib chiqib tasviriy san‘at darslarini tashkil qilishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish masalalari ko‘p bora takidlanmoqda. Shuning uchun ham yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbuslari bilan yangi davrga qadam qo‘yish asnosida keng fikrlash doirasiga ega, bilimlarni chuqur egallagan, sohasida yetuk va davr talabiga javob beraoladigan shaxslarga bo‘lgan etibor ortib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida modernizatsiyalangan va sifatli tashkil etilgan ta‘limni joriy etish masalasini ko‘ndalang qilib qo‘yadi.

Kompyuter yordamida tashkil etiladigan darslar talabalarda tasviriy san‘at fanida yuzaga kelayotgan yangi yo‘nalishlar, zamonaviy bilimlar hamda raqamli texnologiyalarga oid kompetentsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada talabada bugungi kunda vujudga kelayotgan yuqori sanoatli va axborotlashgan jamiyatida o‘z o‘rnini topa olishida ko‘maklashadigan malaka va ko‘nikmalar hosil bo‘ladi. Virtual o‘quv hamda ijtimoiy muhitlarning ko‘payib borishi natijasida raqamli texnologiyalar va tasviriy san‘atni o‘zaro integratsiyasi mahsuli hisoblangan "Grafik dizayn", "Web Dizayni", "Animatsiya", "O‘yinlar (Game)Dizayni", "Raqamli tasviriy san‘at" kabi ko‘plab dasturlar vujudga



kelmoqda. Jumladan, raqamli (kompyuter) san'ati deb kompyuter (axborot) texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan ijodiy faoliyat tushuniladi, uning natijasida raqamli shaklda badiiy asarlar olinadi. "Raqamli san'at" atamasi an'anaviy, raqamli formatga o'tkazilgan yoki dastlab raqamli shaklda yaratilgan badiiy asarlarga, shuningdek, ularning asosiy muhiti kompyuter muhiti bo'lgan yangi turlariga nisbatan qo'llaniladi. Tasviriy san'at jihatlariga esa ASCT-Art, kompyuter grafikasi, raqamli rasm va kabilar kiradi.

Quyida tasviriy san'atni o'qitish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish mavzusiga oid qo'shimcha ma'lumotlar berib o'tilgan: Chizish va bo'yash uchun raqamli asboblari: Adobe Photoshop, Corel Painter va Procreate kabi raqamli chizma va bo'yash dasturlari an'anaviy san'at vositalarini taqlid qiluvchi keng ko'lamlı vositalar va xususiyatlarni taklif etadi. Talabalar turli xil cho'tkalar, teksturalar va ranglar palitrasi bilan tajriba o'tkazishlari va o'zlarining san'at asarlariga osongina tuzatishlar kiritishlari mumkin. Raqamli vositalar, shuningdek, qatlamlarni yaratishga imkon beradi, bu esa rassomlarga turli elementlarda alohida ishlash va ularni muammosiz birlashtirish imkonini beradi.

Bu bir qancha afzalliklarni beradi. Talabalarning faolligi va faol ishtirokini rag'batlantiradi, chunki raqamli vositalar ko'pincha tezkor fikr-mulohazalarni taqdim etadi va tajriba o'tkazishni rag'batlantiradi. Texnologiyaga kirish va zarur apparat va dasturiy ta'minotning mavjudligi, ayniqsa resurslari kam bo'lgan ta'lim muassasalarida to'siq bo'lishi mumkin.

O'qituvchilar, shuningdek, raqamli va an'anaviy badiiy amaliyotlar o'rtasida muvozanatni saqlashlari kerak, bu esa talabalarning fundamental texnika va tushunchalarda mustahkam poydevorga ega bo'lishini ta'minlashi kerak. Tasviriy san'atni o'qitishda raqamli texnologiyalarni joriy etishda samarali pedagogik strategiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'qituvchilar raqamli vositalar imkoniyatlaridan foydalangan holda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va o'ziga xoslikni rag'batlantiradigan yo'l-yo'riq va tuzilmani taqdim etishlari kerak. Bu jarayonda o'qituvchi talaba shaxsining rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi hamda shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Raqamli texnologiyalar orqali ta'lim berilsa ta'lim oluvchilarga ta'lim olish usullari osonlashadi. Bunda esa ta'lim tizimi vositalari rolini multimedialar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Ta'lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars



maslh'ulotlar o'tkazish ta'lim sifatini oshirishni ta'minlaydi. Darhaqiqat, mustahkam va sifatli zamonaviy ta'lim – bu barqaror iqtisodiy o'sish, fan, texnika va texnologiyalarning rivoji, ijtimoiy xizmatlar sifatini ta'minlashning garovi bo'lib kelgan. Shuning uchun ham mamlakatimizda ta'limga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tibor qaratish kundan-kun kuchayib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari. Shaxsning estetik madaniyatini shakllantirish jarayoni (istanbulbear.org).

2. Gruzkov V.N., Subbotina S.A. San'at estetik didni rivojlantirish omili sifatida G. Kant, №4 (1), aprel 2012.

3. U. Xonimqulovning «Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o'qitish jarayonining muhim omillidir» Jurnal; «Журнал математики и информатики» 2024 y.

4. Molchanova L.A. «Innovatsiyalar tasviriy san'atda badiiy-obrazli mazmunida: XX-XXI asrlar chegarasidagi Altay rassomlari ijodi misolida», Tomsk davlat universiteti axborotnomasi, 2008, № 309, 59-bet.

5. M.A.Tayirova. Possibilities of using multimedia technologies in the educational system / Current research journal of pedagogics. / SJIF(Impact Factor) 2023- 7.266 DOI-10.37547/crjp Volume 04 Issue 02, 2023 ISSN 2767-3278 February 28, 2023. Pages: 21-28

6. M.A.Tayirova. Teaching methods using multimedia technologies in the modern education system / Current research journal of philological sciences (ISSN -2767-3758). SJIF Impact factor (2023: 7. 491). March 16, 2023. VOLUME 04 ISSUE 03 Pages: 10-16



KIMYO TA'LIMINING MAZMUNI UG'UNLASHTIRISH MUAMMOLARI

G.I. SAPAYEVA,

*Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti
«Kimyo va uni o'qitish metodikasi» kafedrası PhD v.b dotsenti*

Bu maqolada Analitik kimyo fanining ta'lim mazmuni, o'qitish vositalari, metodlari va shakllarini uyg'unlashtirish muammolari oliy ta'lim talabalarini o'qitishdagi ma'lum bir metodlar asosida o'zlari tanlagan yo'nalish bo'yicha bilimlarini oshirish va muayyan fanlar asoslarini chuqur; mukammal o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladigan fanlar asosida o'qitilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, bilim, ko'nikma, metod, metodika, kompyuter, axborot, axborot-kommunikatsiya, zamonaviy ta'lim, texnologiya, elektron darslik.

В данной статье представлена информация о проблемах гармонизации содержания образования, средств обучения, методов и форм аналитической химии на основе обучения студентов высших учебных заведений на основе определенных методов преподавания предметов, которые получают возможность повысить свои знания в направлении по своему выбору и глубоко и в совершенстве освоить основы отдельных предметов.

Ключевые слова: образование, знание, умение, метод, методология, компьютер, информация, информационно-коммуникация, современное образование, технология, электронный учебник.

This article presents information on the problems of harmonizing the content of education, teaching aids, methods and forms of analytical chemistry based on the training of students of higher educational institutions based on certain methods of teaching subjects, who will have the opportunity to improve their knowledge in the direction of their choice and deeply and perfectly master the basics of individual subjects.

Key words: education, knowledge, skill, method, methodology, computer, information, information and communication, modern education, technology, electronic textbook.

Oliy ta'lim muassasasi talabalarining bilimi, qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishini chuqurlashtirilgan, ixtisoslashtirilgan hamda ma'lum bir yo'nalish asosida o'qitishni ta'minlaydi. Oliy ta'lim muassasasi talabarlari o'zlari tanlagan yo'nalish bo'yicha bilimlarini oshirish va muayyan fanlar asoslarini chuqur, mukammal o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladigan fanlar asosida o'qitilishi shartdir.

Talabalarining bilish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish lozim. Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanishda talabalar:



axborotni tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lish va muammoni aniqlay olishi; muammoni yechish uchun imkoniyat va mos ashyolarni topa olishi; maqsadlarga erishish strategiyasi va aniq harakat rejalarini ishlab chiqa olishi;

munozara va muhokamalarda faol ishtirok etish qobiliyatiga ega bo'lish, ya'ni hamsuhbatining fikrini eshita olishga asoslangan holda uni ishortirish va bamaslahat qarorlar qabul qila olishga o'rganadilar [2].

Insonning tafakkuri, aqliy salohiyati ijtimoiy boyluk hisoblanadi. Ular har qanday jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilaydigan omillardir. Shunday yoshlar borki, ular umumiy o'rta ta'lim jarayonida ma'lum yo'nalish bo'yicha o'zlarining iqtidorlarini, iste'dodlarini namoyon etadilar. Bu boylukdan oqilona foydalanish, uni to'g'ri yo'naltirish katta ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim muassasasi talabalari aynan shu maqsadni amalga oshirishga, iqtidorli, iste'dodli talabalarni tarbiyalashga xizmat qiladi [3].

Zamonaviy ta'lim va axborot texnologiyalarining integratsiyasidan foydalangan holda o'qiyotgan talabalar, faqat an'anaviy usullardan foydalangan holda o'quvchilardan farqli o'laroq:

– axborot bilan tezkor ishlash, uni tanlash, tizimlashtirish va tahlil qilishni biladi;

– kuzatuvlar asosida xulosa chiqarish va mazmunli xulosalar chiqarish uchun yaxshi ko'nikmalarni namoyish eta oladi;

– darsda chalg'imasdan, qiziqish bilan mashq qilib, faolroq ishlaydi [5].

Kompyuterdan foydalanishning birinchi yo'nalishi-bu kimyo fani laboratoriyasida, makro va mikro dunyo obyektlarida ko'rsatish deyarli mumkin bo'lmagan kimyoviy hodisalar va jarayonlarni modellashtirish haqida o'z fikrlarini izohlab bergan. Ta'lim mazmunining tarkibiy qismi bo'lgan bilimlar, o'quvchilar tomonidan o'quv materialini sezgi organlari orqali qabul qilish, tasavvur qilish, abstrakt fikr yuritish, o'rganilgan ma'lumotlarni yodda saqlash, bilimlarni tanish, odatiy va yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llash bosqichlari yordamida o'zlashtiriladi.

Ta'lim mazmunining tarkibiy qismlari va ularni talabalar tomonidan o'zlashtirilishi o'qitish vositalarini to'g'ri tanlash va o'z o'rnida samarali foydalanishni talab etadi. Analitik kimyo darslarida o'rganilayotgan mavzuning mazmunidan kelib chiqqan holda, ularni yoritish imkonini beradigan tabiiy, tasviriy ko'rgazmalar, ekran vositalari, o'quv jihozlari, multimedialar, elektron qo'llanmalardan foydalanish tavsiya etiladi [6].

«Analitik kimyo» o'quv fanida eritmalarni analizlari ularni sifat tarkibi, eritma tarkibini aniqlashning miqdoriy va sifat analizlarini o'rgananganligi sababli, ularni tasviriy o'quv vositalari yordamida talabalarga tushuntirish mumkin emas, mazkur o'quv kursidan tashkil etiladigan o'quv jarayonida axborot kommunikatsiya



vositalari: animatsiyalar, multimedialar va elektron darsliklardan foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi.

«Analitik kimyo» fanini o'qitishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasini ishlab chiqish uchun, avvalo, ta'lim mazmuniga mos holda o'qitish metodlarini tanlash bo'yicha izlanish olib borish zarur. Darsning mazmuni va foydalaniladigan ko'rgazmali vositalar muayyan o'qitish metodlarini talab etadi. Professor – o'qituvchi o'qitish metodlarining turlarini, ularga mansub uslublarni, foydalanish yo'llarini yaxshi bilishi lozim. Shuni hisobga olgan holda quyida o'qitish metodlarining guruhlarini haqida fikr yuritiladi.

«Analitik kimyo» fanini o'qitishda og'zaki bayon metodlari guruhidan doimo va muntazam foydalanib kelingan. «Analitik kimyo» fanini o'qitishda bu metod o'qitish metodlari ichida ustunlik qiladi. Ushbu metod o'qituvchining yorqin, hissiyotli, dalillarga asoslangan, mantiqiy ketma-ketlikda tuzilgan, ko'rgazmali hikoya, suhbat, ma'ruzalariga asoslanadi. Og'zaki metodlar qisqa muddatda katta hajmdagi o'quv materialini o'quvchilarga uzatish, muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, ularni hal etish yo'llarini ko'rsatish, o'quvchilarning nutqini rivojlantirish imkonini yaratadi. Shuningdek, ko'pchilik metodlar o'qitish jarayonida og'zaki metodlar bilan uyg'unlashtirilgan holda qo'llaniladi. «Analitik kimyo» fanini o'qitishda og'zaki metodlarning muvaffaqiyatli qo'llanilishi, o'qituvchi tomonidan nutq madaniyatini egallanganligi, jumladan, nutqning ravonligi, ovoz kuchi, intonatsiya, axborotlarning obrazlilik, ishonchlilik, asoslovchi, isbotlovchi, emotsiyali, shaxsiy munosabat bilan yo'g'rilganlik darajasiga, axborot texnologiyalari asosida yaratilgan elektron darsliklarda ovoz, animatsiya, harakatlarning uyg'unlik darajasiga bog'liq bo'ladi [7].

«Analitik kimyo» fanini o'qitishda og'zaki bayon metodlari guruhiga kiruvchi suhbat, hikoya, ma'ruza metodlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

«Analitik kimyo» fanini o'qitishda ko'rgazmali metodlar guruhidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O'qitish jarayonida ko'rgazmali metodlarning qo'llanilishi, organik kimyo o'quv fani mazmunidan kelib chiqqan holda obektlar va hodisalarni hissiy idrok etish, ularni taqqoslash, o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash, umumlashtirish, sintezlash, xulosa qilish imkoniyatini beradi. Ko'rgazmali metodlar o'qitish jarayonida og'zaki, amaliy, mantiqiy, muammoli metodlar bilan uyg'un holda qo'llaniladi. Masalan, o'quvchilarga ko'rgazmali qurollar asosida o'quv materialini o'rganish bo'yicha topshiriqlar o'qituvchi tomonidan og'zaki beriladi. Topshiriqlarni bajarish jarayonida ko'rgazmalilik amaliy metodlar bilan birikib ketadi, darsda vujudga kelgan muammoli vaziyatlarni hal etishda muammoli metodlar bilan mujassamlashadi.

O'qitish jarayonida ko'rgazmali metodlardan o'z o'rnida va samarali foydalanishning quyidagi afzalliklari mavjud:

– o‘quvchilarda ko‘rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirish, o‘quvchilarning bilish jarayonini faollashtirish, aqliy faoliyat usullarini egallash;

– o‘rganilayotgan nazariy masalalarni aniqlashtirish, darsda bevosita kuzatish imkoni bo‘lmagan ishlab chiqarish korxonalari, tabiatda sodir bo‘ladigan jarayonlarni modellashtirish;

kimyoviy obektlarni kuzatish, ular ustida tajribalar qilish, olingan nazariy bilimlarni amaliyotga qo‘llash, o‘rganilgan hodisalarni sxema, jadvallar asosida aniqlashtirish va tasniflash imkonini beradi.


Ko‘rgazmali metodlar tarkibiga kimyoviy modda, tasviriy ko‘rgazma, ekran vositalari, illyustratsiya, namoyish, o‘quv kinofilmlari, videofilmlar, axborot texnologiyalarining ta‘limiy, modellashtirilgan dasturlari, elektron darsliklar, multimedialarni namoyish qilish kiradi [8].

«Analitik kimyo» darslarida foydalaniladigan ko‘rgazmalar did va estetik talablarga javob berishi, dars mazmunini yoritishi, ketma-ketlikda o‘quvchilar faoliyatini tashkil etishga zamin tayyorlashi lozim.

Talabalarning o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash, o‘quv va mehnat, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish, hayotga tayyorlash, kasbga yo‘naltirishda amaliy metodlar qo‘llaniladi.

«Analitik kimyo» darslarida amaliy metod o‘qitish jarayonida ko‘rgazmali, muammoli, og‘zaki metodlar bilan uyg‘unlashgan holda qo‘llaniladi.

Pedagogik oliy ta‘limning tabiiy fanlar yo‘nalishida ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda mustaqil ish metodlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu metod talabalarning kimyoviy obyektlar, ta‘limiy dasturlar vositasida tayyorlangan animatsiyalar, multimedia, darslik ustida mustaqil ishlash, kimyodan masala yechish va mashqlar hamda test topshiriqlarini bajarish imkonini yaratadi. «Analitik kimyo» fanini o‘qitishda talabalar bilimini shakllantirish bosqichlarida axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiya vositalarining o‘rni juda muhimdir. «Analitik kimyo» fanidagi bilimlarni axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalar yordamida o‘zlashtirishning qiyosiy tahlili rasm tarzida tasvirlandi [10].



- Talabalar o‘zlashtirilgan va ko‘rgan narsa va hodisalarni o‘zlashtirish jarayoni tushuniladi
- Abstrakt tushunchalarni tanavvir qilinib tushuniladi
- Talabalar o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malikalarni amalda qo‘llash jarayoni tushuniladi
- Axborot va pedagogik texnologiyalar asosida o‘zlashtirilgan bilimlarni umumlashtirish va sinash jarayoni tushuniladi
- Axborot texnologiyalar asosida ta‘lim va ta‘limotni aniqlash jarayoni tushuniladi
- Axborot texnologiyalar yordamida tayyorlangan ma‘lumotlarni tushuniladi jarayoni
- Talabalar o‘zlashtirilgan bilimlarni yangi ma‘lumotlar asosida tashchirish jarayoni tushuniladi
- Talaba o‘zlashtirilgan bilim, malika va ko‘nikmalarni kutilmagan va yangi vaziyatlarda qo‘llash jarayoni tushuniladi



Shu sababli, talabalarda kimyoviy ko‘nikmalarni tarkib toptirish jarayonida axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalaridan foydalanish, barcha bosqichlarning samarali kechishi va o‘qitish jarayonini takomillashtirishga zamin tayyorlaydi. Olib borilgan izlanishlar va o‘qitish jarayonida axborot kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha adabiyotlar, didaktik olimlarning tadqiqotlarini o‘rganish kimyoni o‘qitishda axborot texnologiyalari vositalarining didaktik funksiyalarini xususiy metodik darajada, kimyo misolida aniqlash zaruratini keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Боровских. Т.А. Индивидуализация обучения химии на основе современных образовательных технологий// - Москва. МПГУ. Виртуальная галерея, 2011 - 217 с.
2. Emelyanova Ye.O. Formirovaniye u uchashixsya sposobov samokontrolya pri obuchenii ximii: Avtoreferat. dis.kand.ped.nauk.- Moskva:-1998. - 18 s.
3. Shernazarov I.E. «Axborot kommunikatsiya va pedagogik texnologiyani integratsiyasida organik kimyo fanini o‘qitish metodikasi takomillashtirish»// Elektron qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi № DGU 05835.05.12.2018.
4. Sapayeva G.I. Использование информационно-коммуникационных технологий в обучении аналитической химии в высших учебных заведениях/ «Аналитик kimyoning dolzarb muammolari» mavzusidagi xalqaro professor-o‘qituvchilar va yosh olimlar ishtirokidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumanlar materiallar to‘plami. - T., 2023. - B. 388-390.
5. Sapayeva G.I. Improving the methodology of using the integration of information communication and pedagogical chemistry // International Conference on Modern Science and Scientific Studies, 2023. October 19th. Vol. 2. Issue 10. ISSN (E): 2835-3730. SJIF: 5,272. - P. 25-32.
6. Sapayeva G.I. Oliy ta‘lim muassalarida innovatsion va ta‘lim faoliyatini axborot-tahliliy ta‘minlashning pedagogik tizimi / «Nazariy va eksperimental kimyo hamda kimyoviy texnologiyaning zamonaviy muammolari» mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. - T., 2023. - B. 86-87.



FANLARARO INTEGRATSIYANING KIMYO FANINI O'QITISHDAGI O'ZIGA XOS AHAMIYATI

I.X.TURDIBOYEV,

Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Kimyo fanini o'qitishda talabalarda fanlararo integratsiya, kompetensiyalarini shakllantirish usullari, kimyo faniga oid tushunchalarni o'rgatish metodlari, mavzuga oid xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari qisqacha mazmuni, ular tomonidan yaratilgan metodlar va amaliyotga joriy qilinishi masalalari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: *professionallik, ijtimoiy-pedagogik, metodik tayyorgarlik, integratsiyalashgan darslar, modernizatsiya kontseptsiyasi, fanlararo integratsiya, o'z-o'zini rivojlantirish, integratsiyalashgan ta'lim.*

В статье рассмотрены вопросы междисциплинарной интеграции при преподавании химии студентам, методы формирования компетенций студентов, методы преподавания понятий, связанных с химией, краткое изложение научных исследований, проведенных зарубежными учеными по данной теме, созданные ими методы, и их реализация на практике.

Ключевые слова: *профессионализм, социально-педагогическая, методическая подготовка, интегрированные уроки, концепция модернизации, межпредметная интеграция, саморазвитие, интегрированное образование.*

The article discusses issues of interdisciplinary integration when teaching chemistry to students, methods for developing student competencies, methods for teaching concepts related to chemistry, a summary of scientific research conducted by foreign scientists on this topic, and the methods they created. and their implementation in practice.

Keywords: *professionalism, socio-pedagogical, methodological training, integrated lessons, modernization concept, interdisciplinary integration, self-development, integrated education.*

Ilm-fan va texnologiya sivilizatsiyaning asosiga aylandi va shu bilan birga uning mavjudligini xavf ostiga qo'ydi. Bunday sharoitda jamiyat va uning taraqqiyotini asosiy omili barcha mamlakatlar va xalqlarning progressiv rivojlanishining vositasi va mexanizmi bo'lgan ta'lim kun tartibiga qo'yildi.

Binobarin, o'qituvchini vaqtga mos keladigan professionallik darajasi bilan tayyorlash bugungi kunda pedagogik ta'limning dolzarb va murakkab vazifalaridan biridir. Kimyo o'qituvchisining kasbiy mahoratini oshirishga yo'naltirilgan kimyoviy va pedagogik ta'lim ham bundan mustasno emas. Bundan tashqari, ushbu muammoni hal qilishda o'qituvchining oliy ta'limda o'qish davridagi tayyorgarligining barcha tarkibiy qismlarining hissasi muhimdir.

Ijtimoiy – pedagogik tayyorgarlik qiymati – maqsadli ko'rsatmalarga, uni



o'zlashtirish mazmuni va usullariga ta'sir qiladi hamda ularning samaradorligini o'lchaydi.

Metodik tayyorgarlik – maktabda o'qitish amaliyotini innovatsion va ijodiy o'zgartirishga qodir bo'lgan professional fikrlash va faoliyatning zamonaviy uslubiga ega bo'lgan mutaxassisning shakllanishini ta'minlaydi.

So'nggi yillarda ta'lim sifatini oshirish borasida olib borilayotgan davlat miqyosidagi islohotlar o'qituvchining metodik tayyorgarligini yangilashning o'sib borayotgan jarayonlarini maktabni rivojlantirish istiqbollaridan tashqarida amalga oshirish mumkin emasligini taqozo etmoqda. Bu ularning yagona uslubiy ko'rsatmalar asosida o'zaro bog'liq bo'lgan modernizatsiyasi muhimligini belgilaydi. Ularning xilma-xilligi orasida biz rivojlanayotgan ta'lim kontseptsiyasini ta'kidlaymiz va uni amalga oshirish uchun fanda keng tarqalgan muammoli va integral yondashuvlarni sintez qilish natijasida integratsiyalashgan darslarni taklif qilamiz.

Maktab kimyoviy ta'limi va o'qituvchining uslubiy tayyorgarligini yangilash uchun qo'llanma sifatida integratsiyalashgan darslarni tanlash, muammoning ilmiy va o'quv bilimlari mantig'ini shakllantirish rivojlanayotgan ta'limning yadrosi ekanligi bilan bog'liq.

Shuni ta'kidlash kerakki, muammolarni shakllantirish va hal qilish tajribasini o'zlashtirish kimyo o'qituvchisining kasbiy mahoratini shakllantirish uchun alohida ahamiyatga ega. Muammolarni hal qilishda ko'plab olimlar (A. Slastenin, E.N Shiyonov va boshqalarda) tomonidan o'qituvchi ishining ijodiy xususiyati o'rganilgan.

Muammolarni hal qilish shaxsning bilim va ko'nikmalarini ichki va fanlararo integratsiyalashuvi, shuningdek uning barcha sohalarini faollashtirish asosida sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, mutaxassisning malakasini, ilmiy dunyoqarashini, kasbiy madaniyatini shakllantirish orqali kasbiy shakllanish jarayonini sezilarli darajada kuchaytirishga imkon beradi. Bundan tashqari, bilim va ko'nikmalarning integratsiyasi yangi muammolarni shakllantirishni ta'minlaydi, bu esa o'quv jarayonining izchil rivojlanishini belgilaydi.

Shu bilan birga, kimyoviy-metodik tayyorgarlikda integratsiyalashgan darslarni amalga oshirishga uning amaliyotida mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklar to'sqinlik qilmoqda. Avvalo, bu qarama-qarshiliklar:

– pedagogika, psixologiya, fanning g'oyaviy pozitsiyalaridan muammoli yondashuvni ishlab chiqish va ta'limni yangilashda hamda shaxsni rivojlantirishda muammoning roli to'g'risida yangi qarashlar;

– ko'p qirrali ta'limga muammoli yondashuv fanidan – maktabdagi «ilmiy - tadqiqot ishlari» va uni kimyo o'qituvchisini metodik tayyorlash sohasida amalga oshirish asoslariga yetarlicha e'tibor bermaslik va natijada o'quv amaliyotida muammoli yondashuvni amalga oshirishning past darajasi;



– kimyo o‘qituvchisining uslubiy tayyorgarligini insonparvarlashtirish, uning rivojlanish salohiyatini oshirish va mavjud universitet amaliyotida ta‘limni insonparvarlashtirish g‘oyalari amalga oshirishning etarli darajada emasligi, uning davom etayotgan reprodaktiv yo‘nalishi;

– universitetlar e‘tiborini metodologiyani asoslash muhimligiga qaratish;
– kimyo o‘qituvchisini o‘qitish va nazariy bilimlarni maktabda kimyo o‘qitish amaliyotining haqiqatlaridan tez-tez ajratish;

– yuqori intellektual va ijodiy salohiyatga ega mutaxassislarni tayyorlash zarurati, fikrlash va faoliyatning rivojlangan ilmiy va pedagogik uslubi va talabalarni uslubiy tayyorgarlikning modelga muvofiq harakatlarga ustuvor yo‘nalishi;

– mutaxassisning kasbiy mahoratini shakllantirish uchun amaliy ahamiyatga ega-sinf darslarida nazariy materiallarning muhim spektrini talqin qilish va ishlab chiqish va uslubiy fanlarga ajratilgan o‘quv soatlari sonini kamaytirish;

– universitetlarning o‘quv kurslariga bo‘lgan ehtiyoji o‘qituvchini yangi g‘oyalar, o‘qitishning ilg‘or modellari va texnologiyalari va o‘quv rejalarining konservativligi, qo‘shimcha soatlarni ajratishning murakkabligi, kurslarning mavjud mazmuni va tuzilishi, ularni o‘rganish metodologiyasi bo‘yicha tayyorlash;

– talabalar o‘rtasida fanlarga nisbatan qadriyat munosabatini shakllantirish zaruratini kasbiy mahorati va talabalarni metodik tayyorlash jarayonida qadriyatlarga yo‘naltirilgan ta‘lim masalalari kimyo darslarini o‘qitish metodikasida rivojlanmaganligi;

– talabalarda uzluksiz ta‘lim olish istagini shakllantirishning ahamiyati;
– o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini tarbiyalash, tadqiqot izlash, faoliyatni o‘zini o‘zi tashkil etish va o‘zini - o‘zi boshqarish, kasbda ijodiy o‘zini - o‘zi anglash qobiliyatlari hamda tajribalarining etarli darajada rivojlanmaganligidadir.

Tadqiqot davomida adabiyotlarni tahliliy natijasiga ko‘ra, bo‘ljak kimyo o‘qituvchilarini metodik tayyorlashga kompetensiyaga asoslangan integratsiyalashtirilgan darslar kimyo fanini o‘qitish metodikasida etarli darajada ishlab chiqilmaganligini ko‘rsatdi.

O‘qituvchilarning integrativ darslarni ta‘limga munosabati va uni qo‘llash darajasi o‘rtasidagi nomuvofiqlikning sabablaridan birini biz ushbu masala bo‘yicha zamonaviy uslubiy adabiyotlarning yetrali emasligi va uslubiy tayyorgarlik amaliyotida unga e‘tibor berilmasligini tadqiqot davomida aniqladik. So‘rovda qatnashgan o‘qituvchilarning 22,5 foizi darsda muammolarni qanday qo‘yish va hal qilishni bilmaydi. Talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar shuni ko‘rsatdiki, 26,08 foizi rivojlanish va 73,92 foizi integratsiyalash ta‘limi haqida ma‘lumotlarga ega emasligini ma‘lum qilishgan.

Biz eksperiment natijalarini kimyo o‘qituvchisining zamonaviy sifatiga erishish yo‘lidagi uslubiy tayyorgarli oliy ta‘limda ilmning modernizatsiya qilishning eng muhim yo‘nalishlari deb hisobladik.



Integrativ darslarning universalligi uslubiy tayyorgarlikning bir necha darajaga ko'tarilishini ta'minlaydi:

– olingan bilim va ko'nikmalarni qadriyat sifatida idrok etish va tushunish, tanlangan kasb va kasbiy faoliyatga uning motivlari va mutaxassisning ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish va tarbiyalashni ta'minlaydi;

– o'qitish mazmunidagi uslubiy va nazariy bilimlarning ulushini oshirish, umume'tirof etilgan va umumlashtirilgan ko'nikmalarni rivojlantirishga e'tibor qaratish orqali fundamental tayyorgarlik darajasi oshiriladi;

– kompetentsiya shaxsning kasbiy muammolar va muammolarni hal qilishga intilishi, tayyorligi va qobiliyatining o'lchovi sifatida qaraladi;

– kimyo o'qituvchisining kasbiy mahoratining ko'rsatkichi sifatida o'z faoliyatini mustaqil ravishda qurish;

Kimyo o'qituvchisini belgilangan darajalarga metodik tayyorlashning natijasi integrativ darslarni dominant sifatida hisob olishni talab qiladi:

– zamonaviy mutaxassisi uzluksiz shakllantirishning yaxlit tizimi sifatida o'qituvchini kimyoviy-metodik tayyorlashni loyihalash va uni amalga oshirish shartlarini aniqlash;

– o'qituvchini tayyorlashning maqsad va vazifalarini aniqlash, ularga mos dasturiy tarkibni tanlash va uni tuzish;

– innovatsion tayyorgarlik jarayonida talabalar faoliyatining barcha turlarini tashkil etish va boshqarish, buning uchun mos vositalarni, uni amalga oshirish usullari va shakllarini tanlash;

– metodik tayyorgarlik samaradorligi mezonlarini va muallif metodologiyasining uning sifati va kelajakdagi o'qituvchi shaxsining rivojlanishiga, uning kasbiy mahoratini shakllantirishga ta'sirini aniqlash.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, biz tadqiqotimizning asosiy yo'nalishi talabalarning kasbiy va uslubiy kompetentsiyasini tarkibiy qism sifatida shakllantirish masalalarini ishlab chiqishga va universitetda o'qiyotganda ularning kasbiy mahoratining eng yuqori darajasiga erishishga qaratdik.

Ilmiy tadqiqot adabiyotlar tahlili bilan ishlashda bir qancha xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarini ko'rib chiqdik. Bu ilmiy tadqiqotlarda o'quvchi va talabalarda kimyo faniga oid tushunchalarni ilmiy talqin qilishda, tabiiy-ilmiy savodxonlikni va kompetensiyalarni shakllantirishda bir qancha fanlararo integratsiyadan foydalanilganligini tahlil qildik. Masalan, N.A. Volosyuk talabalarning fan ko'nikmalarini shakllantirish uchun kimyo kursida fanlararo aloqalarini asosiy o'ringa qo'ygan va bu bo'yicha metodik ishlarni amalga oshirgan[1].

Integratsiyalashgan darslar texnologiyasini yaratish uchun asos sifatida ta'lim mazmunining didaktik tushunchalaridan foydalanish V.V. Kraevskiy, B.C. Lednev,



I. Ya. Lerner, M. N. Skapsin va boshqalar ilmiy tadqiqotlarida keltirilgan [9]. Litseyda tabiiy fanlar ta'limi mazmunini va nazariy asoslarini o'qitishda fanlar integratsiyalashtirilgan holda tashkil etilishi S.A. Starchenko [10], uzluksiz ta'lim tizimida tabiiy fanlar ta'limi mazmunidagi tushunchalarni shakllantirishda integrativ yondashuvlar haqidagi ma'lumotlarni M.G. Gaponsevalarning [11] ilmiy tadqiqot ishlaridan bilib olish mumkin.

Tabiiy-ilmiy fanlarning integratsiyasi talabalarning aqliy rivojlanish jarayonini kuchaytirishga imkon beradi, chunki u dunyoning tabiiy-ilmiy g'oyalar asosida tuzilishini, tabiiy-ilmiy bilimlarning umumlashtirilgan maydonining tuzilishini aks ettiruvchi obyektlar ierarxiyasi shaklida uzoq muddatli xotira va fikrlash mexanizmlari faoliyatining umumlashtirilgan kognitiv tuzilmalarini shakllantirishni ta'minlaydi.

Integratsiyalashgan tabiiy-ilmiy tayyorgarlikni pedagogik qo'llab-quvvatlashning texnologik modeli-bu o'quv maqsadlarining uch bosqichli ierarxiyasidan, o'qitishning tuzilishi va mazmuni, o'qitishning tegishli vositalari, shakllari va usullari to'plamidan iboratdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ushbu pozitsiyalardan uslubiy tizimni qurish va asoslashning maqsadi talabalar tomonidan kimyo o'qituvchisining kasbiy mahoratining uslubiy tarkibiy qismlarini tizimli va funktsional o'zlashtirishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Волосюк Н.А. Межпредметные связи курса химии как основа формирования предметных умений обучающихся. 2019. канд. дис. 141 с
2. Алиева С.В. Интеграция естественно-научных дисциплин в современном школьном образовании. 2020. канд. дис. 141 с
3. Петракова У.Е. Межпредметные связи на уроках биологии и химии. 2020. канд. дис. 148 с
4. Лях Е.В. Формирование логического мышления обучающихся при решении задач на основе межпредметных связей химии и математики. 2021. канд. дис. 141 с
5. Игнатова В.А. Интегрированные учебные курсы как средство формирования экологической культуры учащихся: Автореф. дисс. д-ра. пед. наук. 2020. Москва. 383 с.
6. Краевский В.В., Леднев В.С., Лернер И.Я., Скапсин М.Н. и др. Дидактические концепции содержания образования как основы создания технологии интегрированных уроков. 2020. Санг-Петербург. 202.с.
7. Старченко С.А. Теоретические основы интеграции содержания естественнонаучного образования в лицее 2000 год, доктор педагогических наук. С.146
8. Гапонцева М.Г. Интегративный подход в содержании непрерывного естественнонаучного образования 2002 год, кандидат педагогических наук. С. 136.



UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA FANLAR INTEGRATSIYASIDAN FOYDALANIB KIMYO TA'LIMI UZVIYLIGINI TA'MINLASH

M.F.YAKUBOVA,

*Belarus-O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo
amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti tayanch doktranti*

Maqolada kimyo fanini o'qitishda maktab o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishga, aniq va tabiiy fanlar integratsiyasidan foydalanish metodikasi yordamida ta'lim berish orqali erishiladigan yutuqlar haqida ma'lumotlar berilgan. Kimyo fanini o'qitishda bir qancha fanlar, ijtimoiy, gumanitar va aniq fanlar integratsiyasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Mavzuga oid ilmiy tadqiqot ishlarining tahlillari keltirilgan.

Kalit so'zlar: integratsiya, metodika, kompetensiya.

The article provides information on the achievements achieved by teaching chemistry to further increase schoolchildren's interest in science, using the methodology of using the integration of exact and natural sciences. Information is provided on the integration of several disciplines, social, humanitarian and exact sciences in teaching chemistry. An analysis of scientific research on the topic is presented.

Key words: integration, methodology, competence.

Bugungi kunga kelib taraqqiyot juda tez rivojlanib bormoqda. Har bir soxa uchun zamonaviy texnikalar kun sayin yangilanib, mutaxassisdan doimo izlanish talab qilmoqda. Hozirda fanlararo integratsiyaga maktabdan boshlab ahamiyat berish yurtimiz taraqqiyoti uchun qo'yilgan dastlabki qadamlar bo'ldi. Hattoki boshlang'ich sinfdan boshlab «Tabiiy fanlar» darsligining tayyorlanib amaliyotga joriy etilishi o'quvchilarning ilimga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirganiga guvoh bo'ldik. Buning samarasi har bir o'quvchi erkin, mustaqil fikrlay oladigan, kelajakda barkamol shaxs bo'lib yurt farovonligiga hissa qo'shishidir. Tabiiy fan darsligida o'quvchilarga mavzuga oid bo'lgan manbalarni tushuntirishda tabiiy fanlar (kimyo, biologiya, geografiya, geologiya, astronomiya, fizika fanlari) integratsiyalashtirilgan holda tushuntirilgan, qolaversa ularga mos tarzda har bir bo'lim tugagandan so'ng qiziqarli amaliy tajriba ishlari ham berilgan.

Darslikda amaliy tajriba va loyiha ishlarini berishdan maqsad:

- bilimlarni yanada to'liqroq o'zlashtirishga, ilmiy tushunchalar, qonuniyatlarni, o'quv jarayonini takomillashtirish va o'quvchilarni dunyoqarashni shakllantirishga;
- tabiat va jamiyatdagi hodisalar o'rtasidagi munosabatlarni tushunishga;
- amaliy ko'nikmalarini shakllanishiga yordam beradi.

Bu juda katta ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Buning



natijasida o'quvchilar tabiatdagi hodisalarni tasavvur qilish, o'z fikrini bildish, ma'lum bir farazlarni taklif qila olish ko'nikmalari shakllanib boradi.

Integratsiyani nafaqat fanlardagi o'zaro bog'liqlik nuqtai nazaridan, balki texnologiya, o'qitish usullari va shakllari yangi metodika sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Integratsiyalashgan dars bu bitta tushunchani, mavzuni yoki hodisani o'rganayotganda bir vaqtning o'zida bir nechta fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni birlashtirgan maxsus dars turi hisoblanadi. Integratsiyalashgan dars zamonaviy uslublarning yangiliklaridan biri bo'lib, u maktab o'quv dasturlarini bog'lash va shu yo'l bilan bilimlarning hayotning haqiqiy talablari bilan bog'likligini yanada mustahkamlash usullaridan biridir.

Ta'lim tizimida turli fanlarning o'quv materiallari bilan aloqa o'rnatmasdan har qanday mavzuni mazmunli tushuntirish mumkin emas. Kimyo kursining mazmuni va boshqa fanlar materiallarining integratsiyasi o'qituvchiga maktabda fanlarni o'qitish muammolarini samarali hal qilishga imkon beradi. Integratsiyalashgan darslar juda muhim ahamiyatga va afzalliklarga ega hisoblanadi. Chunki ular nafaqat o'quvchilarga atrofda borliqni har tomondan ko'ra olishni shakllantirishga imkon beradigan umumiy ta'lim vazifalarini hal qilishga imkon beradi. Integratsiyalashgan darslarda turli xil texnologiyalar, metodlardan samarali foydalanish imkoniyati ta'lim tizimida yana bir muhim muammoni hal qilishga imkon beradi. Yani o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish bilan birgalikda, ularning ilmiy-tadqiqot faoliyatini ham amalga oshirishga imkon beradi.

Hayotiy xodisalarda ilmiy usulda hal qilinishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlash, kuzatuv va tajribalar asosida xulosalar chiqarish kompetensiyasi. Bu xulosalar atrofimizdagi olamni tushunish va inson faoliyati natijasida unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni anglab yetish, shunga ko'ra kerakli qarorlar qabul qila olish ko'nikmasini rivojlantira olish bu bo'limning asosiy maqsadidir. Hech kimga sir emaski, ko'plab fan tarmoqlarida katta yutuqlarga erishish uchun o'zlashtiriladigan turli sohalaridagi bilimlarning integratsiyasi talab etiladi. Lekin bunga o'quvchilarni qanday qilib tayyorlashimiz mumkin?

Maktab darslari orasidagi bog'liqlikni ko'rish juda murakkabdir.

Fanlararo integratsiya yondashuviga asoslangan o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikda faoliyati hisoblanadi. Bu jarayonda o'quvchi va o'qituvchi ijodiy fikr yuritadi. Ya'ni, qo'yilgan muammo va savollarga javob topish uchun izlanishga majbur qiladi, hamkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi, inson tomonidan yaratilgan obyekt va hodisalarga asoslanib amalga oshiriladi. Ushbu ta'lim yondashuvi



o'quvchilarga nazariy va amaliy ko'nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi va oily ta'limda o'qishni yanada osonlashtiradi, o'z g'oyalarini haqiqatga aylantirish va yakuniy mahoratni yaratishni rag'batlantiradi. Butun ta'lim-tarbiya jarayonida tabiiy va aniq fanlarni boshqa fanlar bilan integratsiyalab, ya'ni bir butun qilib o'qitish maqsadga muvofiq bo'ladi. Muammoli-ijodiy vazifalardan foydalanish nafaqat kimyo fanlarning individual sifatlarini shakllantirishdagi rolini aniqlashga imkon beradi, balki nafaqat kimyo, balki biologiya, geografiya, fizika va boshqa fanlar bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beradi.

Kimyo sanoati, elektrotexnika, transport va energetika sohalarida nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan birga alohida muhandislik maktablari tashkil qilinadi Prezidentimiz Oliy Majlisga va O'zbekiston Xalqiga murojaatomasiga ta'kidlaganidek: «Farzandlarimizning qobiliyatini ro'yobga chiqarishga bolalikdan e'tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak yurtimizda yana ko'plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar yetishib chiqadi, men bunga ishonaman». Maktab kimyo o'qituvchisi o'quvchilarga chuqur bilim berish, kimyo faniga qiziqtirish, darslarni mazmunli, kimyo fanini boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lab, fanlararo bog'lanishni doimo amalga oshirish yaxshi natijalar beradi.

Masalan: o'quvchi xozirgi 4, 5, 6-sinflardagi «Tabiiy fanlar» darsligining mazmunida singdirilgan ma'lumotlar (ilgari 4-sinfda «Tabiatshunoslik» fanlarida o'rganilgan manbalar)ni o'rganish mobaynida o'quvchilar yer osti va yer usti boylıklarga nimalar kirishi va bizning hududlarda qaysi qazilma boyligi qayerdan olinishi haqida to'liq ma'lumotlar berilishi bolalarni kimyo orqali atrofda olamga qiziqishlarini boshlang'ich maktab davridan uyg'otadi. Bolalar qazilma boylıklarni o'tkanda biz qanday qilib saqlab qolishimiz haqida ham ma'lumotlar berib o'tilgan. Birgina ushbu darslik orqali 4-sinf o'quvchisi butun O'zbekiston bo'ylab sayohat uyushtira oladi.

Tabiiy fanlarni o'rganish davomida o'quvchilar mikroskop nima ekanligi, uy sharoitida lupa yordamida qiziqarli tajribalar o'tkazish mumkinligini qolaversa hujayraning tarkibiy qismlarini, kislorodning insonga va o'simliklarga qay darajada muhim ekanligi haqida tushunchaga ega bo'lishadi. Hattoki o'simliklar sog'lom o'sishi uchun qo'llaniladigan azot, kaliy, fosfor kabi o'g'itlar O'zbekistonni qaysi hududida ishlab chiqarilishi va o'g'itlar yetishmasa o'simliklarda qanday o'zgarishlarga uchrashi haqida to'liq ma'lumotlar berilgan. Qaysi o'simliklarda shakar bo'lishini, shakar bu kimyoviy modda ekanligini, fotosintez mavzusi orqali esa insonlarga zararli bo'lgan karbonat angidrid CO₂ o'simliklar uchun havo



vazifasini bajarishini, o‘simliklar ajratib chiqargan kislorodsiz O₂ inson halok bo‘lishi chiroyli tarzda tasvirlab berilgan. Botanika darsligi orqali kimyo faniga qo‘yilgan navbatdagi qadam tashlashdi.

Tabiiy fanlarda ifodalangan (ilgari 6-sinflarning «Fizika» [2] darslarida) o‘quvchilarning tabiat va inson, jism, modda, materiya, moddalarning tuzilishi va xossalari, molekulalar, atomlar va ularning tarkibiy qismlari uning xossalari miqdoriy tavsifiga oid bilimlar yangi bosqichga ko‘tariladi.

Yurtimiz olimlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy kabi olimlarning olib borgan ishlari, bu olimlar bo‘lib, bir vaqtning o‘zida bir qancha fanlarni mukammal o‘rgananliklari uchun ham qomusiy olimlar deyilishini, fanlararo integratsiyani shu orqali tushuntirish mumkin. O‘quvchilar ham endilikda bir vaqtda hamma fanlarni mukammal o‘rganish mumkinligini tushunib, endilikda ular ham qomusiy olimlarimiz kabi olim bo‘lib yurtimizni rivojlanishiga hissa qo‘shaman degan umid uchqunlari paydo bo‘ldi. Ushabu darslikda hattoki o‘lchash uchun zarur bo‘lgan: asbobning o‘lchash aniqligi, o‘lchash xatoligi, o‘rtacha qiymat moddaning zichligi haqida dastlabki tushunchalar keyinchalik analitik kimyo darsliklarida onson o‘zlashtirilish uchun asos xizmatini bajaradi. Bu mavzulardan keyin ozgina xatolik qilsa nimalar bo‘lishi batafsil farmokologik tomonlaman tasvirlab berilganda, xato qilmaslikka harakat va kelajakda farmatsevt bo‘lishga ishtiyoqligi uyg‘ondi.

I bobda esa molekula, atom nima ekanligi bu borada qaysi olimlar nima deganligi haqidad to‘liq tushunchalar yoritib berilgan. Moddaning uch xil agregat holati borligi, diffuziya hodisasi nima ekanligi batafsil yoritib berilgan. Har bir mavzu o‘tilgach hayotda qay tarzda qo‘llanilishiga ham batafsil misollar berilgan. Fizika va kimyoning dastlabki uchrashuvi atom – molekulyar ta‘limotda ko‘ramiz, keying qadam elektrolizning qo‘llanilishi haqidagi masalani ajratib ko‘rsatish mumkin. Fan-texnika taraqqiyoti uchun umumiy o‘rta ta‘lim maktabga zarur va yetarli ilmiy saviyaga birgalikdagi mashg‘ulotlar jarayonidagina erishish mumkin.

7- sinfda o‘rganiladigan MDX tabiiy «geografiya»si[3] kursida o‘quvchilar turli mineral moddalar va foydali qazilmalarning yer qa‘rida hosil bo‘lish tarixi bilan tanishadilar. Maktab ta‘limida fanlararo aloqadorlikning dolzarbligi ijtimoiy, tabiiy, texnik bilimlarning birlashish, yaqqol ifodalangan fanning zamonaviy rivojlanish darajasi bilan izohlanadi. Ilmiy bilimlarning o‘zaro uyg‘unlashib borishi pedagog mutaxassislarga yangi talablar qo‘yadi.

6-sinf darsligi «tabiiy fanlar» bitta darslikda tabiat botanika, kimyo, fizika,



biologiya, ekologiya, astronomiya, geografiya qolaversa vatan tuyg‘usi bo‘lmish bir qancha fanlar integratsiyasiga aniq misol tarzida korishimiz mumkin. Bu darslik intellektual tarzda zamonaviy dunyo qarashlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan darslik hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining barqarorligiga, aniqrog'i uning ijtimoiy, ma'naviy yuksalishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan destruktiv diniy, ekstremistik va terroristik oqimlar, guruhlar faoliyatini nazariy-amaliy tahlil etib, fuqarolik va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish, g'oya tushunchalarining genezisi, mohiyat va mazmuniga mavjud ilmiy nazariyalarga suyangan holda ta'rif berish, tasniflash, talabalarda fuqarolik va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun muayyan ijtimoiy-psixologik asosni yaratish, takomillashtirish hozirgi kunda pedagogika fani oldida turgan muhim vazifalardandir. Mazkur masala, ya'ni talabalarda fuqarolik va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarini o'rganish muammosi alohida tadqiqot obyekti bo'lmagan. Hozirgi vaqtda destruktiv g'oyalar va guruhlarning vujudga kelish sabablari, faoliyat doirasi kengayishining ijtimoiy-pedagogik tadqiqi dolzarb nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Talabalarda fuqarolik va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishda elektron muhitidan foydalanish texnologiyasini takomillashtirish natijasida quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tish lozim:



Zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot, fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi axborot-kommunikatsion texnologiya imkoniyatlaridan keng foydalanishni taqozo etmoqda. Shunday dolzarblik kasb etuvchi ijtimoiy hodisa talabalarda fuqarolik va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishda elektron muhitidan foydalanish texnologiyasini takomillashtirish ehtiyojini tug'dirmoqda, chunki bo'lajak mutaxassislarning kasb faoliyatida fuqarolik dahldorligi, milliy va umumbashariy qadriyatlardan xabardor bo'lishi ularning yuksak salohiyatli kadrlar bo'lib yetishib chiqishi garovidir.

Bo'lajak mutaxassilarning kelgusidagi kasbiy kompetentligi ularning faol fuqaro sifatida namoyon bo'lishida, mamlakat taraqqiyoti, ilmu fan rivojidadagi sa'y-harakatida yaqqol ko'zga ko'rinadi. Shu sababli, uni rivojlantirishning ilmiy tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish – xalqimizning asrlar davomida yaratib kelgan an'analari, odob-axloq me'yorlari, turmush tarzi, yuksak ma'naviyati, moddiy va ma'naviy boyliklari, tarixiy merosi, urf-odatlari, barcha tarixiy yutuqlari va saboqlariga cheksiz hurmat-e'tibor bilan munosabatda bo'lish tushuniladi. Axborot-kommunikatsion texnologiyalari va elektron ta'lim muhiti rivojlanishi bilan, videokonferensiya, ijtimoiy tarmoq va diskussion forumlar kabi vositalardan foydalangan holda, ta'lim sub'ektlari bilan faol o'zaro hamkorlikda ta'lim jarayonini tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning amaliy faoliyati davomida tatbiq eta olish, shuningdek, o'z davlati oldidagi burch va majburiyatlarini anglagan holda, ularni to'liq amalga oshirishda umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida» 2017 yil 7 fevrvldagi PF-4947-sonli Farmoni.
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi «Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir» nomli ma'ruzasi.
3. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.01.2019 y., 06/19/5618/2452-son)
4. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -Toshkent, «O'zbekiston», 2017.
5. http://www.who.int/mental_health/prevention/suicide_rates/en/index.html; <https://www.janes.com>; <http://www.xs.uz/uzkr/post>



BO‘LAJAK SHIFOKORLARNI MA‘NAVYI-AXLOQIY SIFATLARINI OMMAVIY TADBIRLAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH

R.A. YUNUSOV,

*Toshkent davlat stomatologiya instituti
yoshlar masalalari va ma‘naviy ma‘rifiy ishlar
bo‘yicha prorektor*

Mazkur maqolada bo‘lajak shifokorlarning ma‘naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishda ommaviy tadbirlarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, bu jarayonni indikativ model orqali tizimlashirish va samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *ma‘naviy-axloqiy sifatlar; bo‘lajak shifokor; indikativ model, ommaviy tadbirlar; tarbiya.*

This article analyzes the role and importance of mass events in the formation and development of the spiritual and moral qualities of future doctors. It also examines the possibilities of systematizing this process and increasing its effectiveness through an indicative model.

Key words: *spiritual and moral qualities, future doctor, indicative model, mass events, education.*

So‘nggi yillarda tibbiyot sohasida shifokorlarning ma‘naviy-axloqiy sifati ahamiyati ortib bormoqda. Ma‘naviy-axloqiy jihatlari bemorlar bilan muloqotda, kasalliklarni davolashda va butun tibbiy jamoa bilan aloqalarda muhim rol o‘ynaydi. Shu jihatdan shifokorlarning faqat kasbiy bilim va ko‘nikmalari emas, balki ma‘naviy-axloqiy fazilatlar ham muhim o‘rin tutadi. Bunday fazilatlarini shakllantirishda ommaviy tarbiyaviy tadbirlar muhim tarbiyaviy vosita hisoblanadi. Ma‘naviy-axloqiy sifatlar deganda, insonning kasbiy mas‘uliyat, shafqat, insoniylik, rostgo‘ylik, odob-axloq kabi xususiyatlari tushuniladi. Shifokor uchun bu sifatlar kasbiy faoliyatning etik asosi hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda inson qadrining ulug‘lanishi bevosita ajdodlarimiz yaratgan milliy qadriyatlarining avlodlar tomonidan o‘zlashtirilishi bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lib boraveradi. Yangi O‘zbekistonda ommaviy-madaniy tadbirlar asosida yoshlar ma‘naviy dunyoqarashini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka erishish uchun, bu tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazishda tarbiyaviy ta’sirga alohida e’tibor berish hamda o‘zini-o‘zi tarbiyalash jarayoni kechishiga undaydigan mexanizmlarni ishga solish lozim. Ma‘naviy-axloqiy tarbiya va o‘zini-o‘zi tarbiyalashda yoshlarning fazilatlarini rivojlantirish va kundalik odatlarni ijobiy tomonga o‘zgartirishga undaydigan xatiyolar asosiy mazmun kasb etadi.



Yangi O'zbekistonda ommaviy-madaniy tadbirlar asosida yoshlar ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishda madaniy tadbirlarning yuqori tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi va ko'zlangan maqsadga erishishi uchun tashkilotchining bu tadbirlar orqali yoshlarning ma'naviy tarbiyasini yuksaltirishga asoslanishi va shu vazifalarni bajarishni maqsad qilib olishi hamda bunga erishish uchun zarur muxit yaratishi lozim. Madaniy tadbirlarni tashkil qiluvchi shaxsyoshlarda o'zini-o'zi tarbiyalashni yo'lga qo'yishi uchun ularga istiqbolni aniq ko'ra bilishlarida, unga erishish yo'llarini izlab topishida, yuksak ideallarga ega bo'lishlarida yordam berishi va imkoniyat yaratishi lozim.

Bu borada tashkilotchi madaniy tadbirlar orqali yoshlarda xalqimizning quyidagi milliy xususiyatlarini rivojlantirishni nazarda tutishi kerak: jamoa timsoli bo'lgan oila, maxalla, el yurt tushunchalarining muqaddasligi, ota-ona, maxalla-kuy, umuman jamoatga yuksak hurmat-e'tibor; millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tiliga muxabbat; kattaga - hurmat va kichikka - izzat, mehr-muxabbat, go'zallik va nafosat, hayot abadiyligining ramzi - ayol zotiga ehtirom, sabr-bardosh va mehnatsevarlik, halollik, mehr-oqibat va xokazo. Shuningdek, madaniy tadbirlarni tashkil qilishda va o'tkazishda tashkilotchi quyidagi umumbashariy qadriyatlarga asoslanib sstenariylar yaratishi maqsadga muvofiqdir. Ular quyidagilardir: qonun ustuvorligi, inson haq-huquqlari va xurfiylik, turli millat vakillariga hurmat va ular bilan bahamjixat yashash, diniy bag'rikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, ma'rifatparvarlik, o'zga xalqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish va xokazolar.

Ma'naviy-axloqiy sifatlar – bu insonning ijtimoiy va professional faoliyatida muhim o'rin tutadigan xususiyatlar to'plamidir. Shifokorlar uchun bu sifatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Empatiya: Bemorlarning holatini tushunish va ularga hamdardlik bildirish.
- Halollik: Bemorlar bilan ochiq va rostgo'y muloqot.
- Mas'uliyat: Kasbiy ishda to'g'ri qarorlar qabul qilish va har bir bemorga individual yondashuv.
- Professionalizm: Kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish, tibbiyotdagi etik me'yorlarga amal qilish.

Ommaviy tadbirlar – bu keng auditoriyaga mo'ljallangan, ijtimoiy maqsadlar va muammolarni hal qilishga qaratilgan turli shakldagi tadbirlar. Ommaviy tadbirlar shifokorlarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki bu tadbirlar ularga o'z kasbiy axloqlarini mustahkamlash, hamdardlik va empatiya kabi xususiyatlarni rivojlantirish imkonini beradi. Ommaviy tadbirlar –



bu ma’rifiy uchrashuvlar, bayramlar, haftaliklar, forumlar va boshqa jamoaviy faoliyatlardan iborat bo‘lib, ular bo‘lajak shifokorlarning shaxsiy kamolotida muhim o‘rin tutadi. Bu tadbirlarda qatnashish orqali talabalar jamoaviy faoliyatda ishtirok etishni o‘rganadi, ma’naviy his-tuyg‘ularini boyitadi.

Ommaviy tadbirlar – bu odamlarning ongini o‘zgartirish va ijtimoiy-psixologik jihatdan rivojlanishga yordam beradigan tadbirlardir. Shifokorlarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishda ommaviy tadbirlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

– Treninglar: Shifokorlar uchun maxsus psixologik va axloqiy treninglar, guruh ishlarini tashkil qilish.

– Seminarlar va konferensiyalar: Tibbiyot va axloqiy muammolarni muhokama qilish, eng yangi ilmiy-texnikaviy yutuqlarni kiritish.

– Jamoaviy ishlash faoliyatlari: Shifokorlarning jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar.

Shifokorlarning ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega bo‘lishi nafaqat bemorlar bilan yaxshiroq muloqot qilishga, balki ularning sog‘lig‘ini saqlashga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bemorlar shifokorga ishonch bildirganida, davolanish jarayoni tezroq va samaraliroq bo‘ladi. Shuningdek, shifokorlar o‘rtasida ham yaxshi axloqiy munosabatlar muhimdir.

Indikativ modelning kontseptsiyasi

Indikativ model – bu ommaviy tadbirlar yordamida shifokorlarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini o‘z ichiga oladi. Modelda ommaviy tadbirlarning turlari, samaradorligini baholash usullari, va bu tadbirlarning shifokorlarning ma’naviy-axloqiy sifatlariga ta’siri batafsil yoritiladi.

Modelning asosiy qismlari:

1. Ommaviy tadbirlar: Tadbirlarning turlari, shakllari va mazmuni (masalan, treninglar, seminarlar, faoliyat ko‘rsatish).

2. Shifokorlarning ma’naviy-axloqiy sifatleri: Empatiya, halollik, mas’uliyat kabi sifatlar.

3. Indikatorlar: Shifokorlarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini o‘lchash va baholashning aniq ko‘rsatkichlari (bemorlar bilan muloqotdagi o‘zgarishlar, ish faoliyatining samaradorligi va boshqalar).

Indikatorlar

– Empatiya darajasi: Shifokorlarning bemorlarga bo‘lgan munosabati, ularning ruhiy holatini tushunish qobiliyati.

– Kasbiy axloqiy me’yorlarga rioya qilish: Shifokorlarning etik me’yorlarga amal qilishi, shaxsiy hayot va kasbiy faoliyatni bir-biridan ajratish.



– Bemorlar bilan muloqotning sifatini o‘lchash: Ommaviy tadbirlar orqali bemorlar bilan yanada samarali muloqot o‘rnatish.

Indikativ modelning mazmuni. Indikativ model – bu tarbiya jarayonini tizimli yo‘lga qo‘yishga xizmat qiluvchi nazariy-amaliy uslubdir. Ushbu modelda quyidagi bosqichlar nazarda tutiladi:

– Diagnostika bosqichi: talabalarning mavjud ma‘naviy holatini baholash;

– Tashkiliy bosqich: tadbirlarni rejalashtirish va moddiy-ma‘naviy sharoitlarni yaratish;

– Amaliy bosqich: tadbirlarni o‘tkazish va faol ishtirokni ta‘minlash;

– Refleksiya bosqichi: tadbirlar samaradorligini tahlil qilish va baholash.

Modelni amalga oshirishdagi natijalar. Mazkur model asosida tashkil etilgan tadbirlar natijasida talabalarning axloqiy qarashlarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgan. Ularda jamoaviy faollik, javobgarlik hissi va kasbiy etikaga bo‘lgan munosabat kuchaygan. Indikativ modelning samaradorligi ommaviy tadbirlar orqali shifokorlarning ma‘naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishda ijobiy natijalar beradi. Bu tadbirlar shifokorlarning kasbiy faoliyatini yaxshilash va bemorlar bilan samarali muloqot o‘rnatishga yordam beradi. Indikativ model, ya‘ni ommaviy tadbirlar orqali shifokorlarning ma‘naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy asosi sifatida, shifokorlarning kasbiy axloqiy ko‘nikmalarini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. Modelda ko‘rsatilgan indikatorlar, shifokorlarning empatiya darajasi, kasbiy axloqiy me‘yorlarga rioya qilish va bemorlar bilan muloqotning sifatini o‘lchash imkoniyatini taqdim etadi. Bu, o‘z navbatida, shifokorlarning kasbiy faoliyatidagi axloqiy me‘yorlarga bo‘lgan talabni oshiradi va ularning yanada yuqori sifatli xizmat ko‘rsatishiga olib keladi. Ommaviy tadbirlar vositasida bo‘lajak shifokorlarning ma‘naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish indikativ model orqali samarali amalga oshirilishi mumkin. Bu yondashuv nafaqat shaxsiy kamolotga, balki kasbiy yetuklikka ham xizmat qiladi.

Ommaviy tadbirlar vositasida bo‘lajak shifokorlarning ma‘naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish, tibbiyot sohasida kasbiy axloqiy me‘yorlarning mustahkamlanishiga va bemorlarga yuqori sifatli yordam ko‘rsatishga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Tadqiqotda ommaviy tadbirlarning shifokorlarning ma‘naviy-axloqiy sifatlariga, xususan, empatiya, halollik, mas‘uliyat, va professionalizm kabi ko‘nikmalarga qanday ta‘sir qilishini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Ommaviy tadbirlar, ayniqsa, shifokorlarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga yordam beradigan samarali vosita sifatida ko‘rsatilmog‘da. Treninglar, seminarlar,



psixologik va kasbiy axloqiy tadbirlar shifokorlarning nafaqat professionallik, balki insonparvarlik jihatlarini ham rivojlantiradi. Shuningdek, ommaviy tadbirlar shifokorlar va bemorlar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash, muloqotda yanada samarali bo'lishga imkon yaratadi, bu esa bemorlarning davolanish jarayonini tezlashtiradi va samarali qiladi.

Kelajakda, tibbiyot sohasida ommaviy tadbirlar orqali ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishga doir ko'proq tadqiqotlar o'tkazilishi, yangi metodikalar ishlab chiqilishi, hamda bu metodlarning shifokorlarning kasbiy faoliyatiga yanada samarali kiritilishi zarur. Shifokorlarning ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishning samarali modeli nafaqat tibbiyot sohasida, balki jamiyatda ham ijobiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Taraqqiyotga – faqat mashaqqatli va jasoratli mehnat orqali erishiladi. «Yangi O'zbekiston» gazetasi, 2022 yil 21 dekabr.
2. Yunusov R.A., Ibragimov X. Ethical ideals in forming spiritual-moral qualities offuture doctors// «Science and innovation». - T.: - 2023 yil 30 sentyabr. T-9.
3. Yunusov R.A. Bolajak shifokorlarning manaviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish // Science and innovation. Special Issue 16 - 2024 yil T.-3, B. 727-729. [https://cyberleninka.ru/article/n/bo-lajak-shifokorlarning-ma'naviy-axloqiy-sifatlarni-shakllantirish](https://cyberleninka.ru/article/n/bo-lajak-shifokorlarning-ma-naviy-axloqiy-sifatlarni-shakllantirish)
4. Yunusov R.A. Methodological Basis for the Formation of an Indicative Model for the Development of Spiritual and Moral Values of Future Doctors // Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521), Vol. 2: № 9 21 September 2024, P.431-437
5. Najmetdinova M. M. Yangi o'zbekistonda ommaviy-madaniy tadbirlar asosida yoshlar ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish istiqbollari.// Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture innovative academy research support center - Volume 4, Issue 2, February 2024 ISSN 2181-2888 Page 39
6. S. V. Shlik va boshqalar, Bo'lajak shifokorning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi: an'analar va zamonaviylik. Rostov GMU nashriyoti, (5), 126-130. (2015).



YOSHLARDA MILLIY O'ZLIK TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI

F.M.FAYZULLAYEV,

Qori Niyoziy nomidagi TPMI
2-bosqich tayanch doktoranti

O'zlikni anglash shaxsning o'zini haqiqiy inson muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarning egasi va ular uchun mas'ul ekanini, yagona til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiyligini tushunib yetishi jarayonida shakllanadi. Mazkur maqolada yoshlarning milliy o'zlikni anglash va hayotiy ko'nikmalari haqidagi ilmiy-falsafiy masalalarga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: o'zlikni anglash, milliy o'zlik, shaxs pozitsiyasi, ahloqiy meyorlar, ahloqiy xislatlar, hayotiy ko'nikmalar, milliy o'zlik.

Identity is formed in the process of a person's understanding that he is a real person, the owner of certain material and spiritual wealth and is responsible for them, a single language, customs, traditions, values, belonging to the state, a common set of interests and needs. This article is devoted to scientific and philosophical issues of national identity and life skills of young people.

Key words: identity, national identity, personal position, moral standards, moral qualities, life skills, national identity.

Идентичность формируется в процессе осознания человеком того, что он является реальной личностью, владельцем определенных материальных и духовных благ и несет за них ответственность, единого языка, обычаев, традиций, ценностей, принадлежности к государству, общего набора интересов и потребностей. Статья посвящена научно-философским вопросам национальной идентичности и жизненных навыков молодежи.

Ключевые слова: идентичность, национальная идентичность, личностная позиция, моральные нормы, моральные качества, жизненные навыки, национальная идентичность.

Kishining tevarak atrofga munosabati, hamkorlikdagi faoliyati va ijodiy ish jarayonida namoyon bo'ladigan ijtimoiy ahamiyatga molik o'zgarishlar qilish layoqati shaxsning faolligi sifatida tushuniladi. Shaxs faolligining ancha umumiy tarzda, birikma holdagi ta'rifi uning g'oyaviy prinsipligida, o'z nuqtai nazarini izchil himoya qila borishida, so'zi bilan ishining birligida ifodalanadigan faol hayotiy pozitsiyasini bildiradi.

Jamiyatda faol hayotiy pozitsiya ijtimoiy burchga nisbatan ongli munosabatda bo'lishni, fuqarolikni, jamoatchilikni, ilmiy dunyoqarashga tayanadigan e'tiqodni,



ijtimoiy-axloqiy qoidalarning buzilishiga murosasizlikni taqozo etadi. Shaxsning moslashuvchanlikka ham, xulq-atvorning salbiy turiga ham zid bo'lgan jamoa tarzida o'zini o'zi belgilashi ham uning faol hayotiy pozitsiyasidan dalolat beradi.

Yosh yigit va qizlarda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish axloqiy tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biridir. Yoshlar o'z-o'zini boshqarish jarayonida xususan milliy o'zlikni anglashda mafkuraning roli davlat tuzilmasining shakliga (totalitar, demokratik va boshqa) ko'p jihatdan bog'liq bo'lgan.

Mustabit tuzumda uni butunlay salbiy, xalq manfaatlariga zid va eskilik sarqiti, deb baholangan. Chunki sho'rolar davlati kommunistik mafkuraviy vazifalarga asoslanib bo'lib, dinning har qanday ko'rinishiga, madaniy qadriyatli yondashuvga yo'l qo'yilmadi. Diniy madaniyat, diniy qadriyatlarning ijtimoiy hayotdagi roli nafaqat inkor etildi, balki uning har qanday ko'rinishlariga qarshi qurashildi.

Milliy o'zlikni anglash masalasi bu davrda deyarlik unutildi. Chunki milliy masala bilan qiziqadigan kishilar millatchilikka ayblanib, jazolandi. Shaxsda joy olgan ijodiy va yaratuvchanlik qobiliyati uning erkinligi me'yori bilan munosib ravishda sodir bo'ladi. Metodologik jihatdan erkinlik me'yori cheklangan yoki nazoratga olingan mamlakatda taraqqiyot yo'llari bo'g'iladi.

Mustabit tuzumda o'rnatilgan tartib va qoidalarda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy tizimda inson shaxsi kamsitilgan «meni»ni harakatga keltirish huquqidan maxrum edi. Chunki «meni»ning harakatga keltiruvchi erkinlik va mustaqillikni kishanlovchi tizim yaratildi. Inson shaxsligini ilohiyatlashtirishga qaratilgan nazariy qoidalar – individualizmni tanqid qilish zaylida yuzaga chiqdi.

Holbuki, individualizmni o'zo'ziga mahliyolik, xudbinlik emas, balki o'z-o'zini qadrlashg, shaxsiy kamolot sari intilish, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, o'z «meni»ning mustaqilligi salohiyatini o'rnatishni taqozo etadi [5]. Haqiqatan ham totalitarizm davrida jamiyatning har bir sohasi va uning bo'g'inlari ijtimoiy hayotimizning har bir yo'nalishi, ayniqsa shaxs erkinligi davlat nazorati ostida bo'lib, o'zligini anglash, xususan milliy o'zlikni anglash, xususan milliy o'zlikni anglash cheklab qo'yilgan edi.

O'zlikni anglash – insonning o'zini alohida vujud sifatida butun borliqdan ajrata bilishi, baholashi va qadriyat sifatida anglashini ifodalovchi tushuncha. O'zlikni anglash shaxsning o'zini haqiqiy inson muayyan moddiy va ma'naviy boylıklarning egasi va ular uchun mas'ul ekanini, yagona til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiyligini tushunib yetishi jarayonida shakllanadi.



O'zlikni anglash jamiyat oldida turgan vazifalarni to'g'ri anglash, ijtimoiy tajribalardan foydalanish qonuniyatlarini bilish, Vatan, millat oldidagi mas'uliyat tuyg'usi hamdir. O'zlikni anglash mudom tarixiy rivojlanib boradigan shakl va ko'rinishlarda, turli darajalarda namoyon bo'ladi. Uning birinchi shaklida inson his etish orqali o'zini tabiatdan, tevarak-atrofdagi narsa va hodisalardan ajrata biladi.

O'zlikni anglashning ikkinchi shakli yanada yuqori darajada namoyon bo'lib, unda inson o'zini biror-bir jamoa, u yoki bu madaniyatga tegishli ekanligi orqali anglaydi. Va nihoyat, uchinchi, eng yuqori daraja – o'zini «men» orqali boshqalar nuqtai nazaridan baholashi, erkinligini his etgan holda har bir xatti-harakatiga bo'lgan mas'uliyatni his etishi, o'zi qilayotgan ishlarining to'g'ri-noto'g'riligi, haq yoki noxaqligini nazorat qila bilishidir. Bunda insonning dunyoqarashi, ma'naviyati va ma'rifatligi, uning individual tarzda shakllangani bilan belgilanadi.

O'zlikni anglashning shakllanish jarayoni va omillari Sharq hamda G'arb allomalari tomonidan har tarafflama o'rganilgan. Sharq allomalaridan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Forobiy, Ibn Sino, Nasafiy, Navoiy, Mirzo Bobur va boshqalar o'zlikni anglashning ruhiy, botiniy jihatlarni, inson ma'naviyatining tarkibiy qismi, olam va odam munosabatini bilish asosi ekani kabi masalalarga e'tibor qaratganlar. G'arb allomalaridan Suqrot, F.Bekon, T.Gobbs, R.Dekart, F.Nisshe, Z.Freyd, E.Erikson, V.Gegel, I.Kant, N.Berdyayev va boshqalar o'zlikni anglashning zohiriy jihatlarni, uni ijtimoiy borliq, makon va zamonning faol ijodkorligi omili sifatida o'rganganlar.

«Individual ong – o'zini anglashdir», deb yozadi I.Kant. Tarixiy zaruriyat ostida «insonning jamiyat va boshqa kishilar bilan munosabatlari jarayonida o'zini nazorat etish va o'zini idora qilish kabi hayotiy muhim vosita sifatida paydo bo'lgan. Agar mehnat va jamiyat paydo bo'lmaganida kishida o'zlikni anglash ham shakllanmas edi. Shunday ekan, o'zlikni anglashsiz jamiyat va haqiqiy insoniy mehnat ham muvaffaqiyatli rivojlanmas edi».

Kishidagi individual ong, o'zlikni anglash, o'zini nazorat etish, boshqarish tarixiy rivojlanish jarayonida, mehnat va ijtimoiy munosabatlar ta'sirida shakllana borgan. XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida yangi davr faylasuflari va nemis mumtoz faylasuflari tomonidan rivojlantirilgan o'zlikni anglash to'g'risidagi qarashlar ham e'tiborga molikdir. Jumladan, yangi davr ijtimoiy-siyosiy ta'limotlarida xususan,

Dekart qarashlarida o'zlikni anglash «cogito ergo sum» tushunchasi orqali ifodalangan. Dekart «Agar men har qanday narsa va hodisa haqida fikr yuritadigan bo'lsam, men o'zimni subyekt sifatida mavjudligimni his qilaman»,



degan. O'zlikni anglash – bu faqat individual hodisa yoki jarayon bo'lmay, balki jamoa yoki birorbir xalqning maqsadli faoliyatidan ham iborat. Shu nuqtai nazardan ham milliy o'zlikni anglashning etnopsixologik jihatlarini tadqiq qilish shartdir.

Masalan, uni shaxs (millat vakili) va guruh (etnos), millat va boshqa millat, an'anaviy ong va zamonaviy mentalitet, etnos va superetnos ongi, milliy o'zlikning mehnat faoliyatida, millatlararo munosabatlarda, turmush tarzida namoyon bo'lishi kabi yo'nalishlarda ochib berish mumkin.

Gegel birinchi bo'lib ruh bilan o'zlikni anglash masalasini uyg'unlikda qaradi. «Bilishning haqligi o'zlikni anglashdadir, o'zlikni anglash esa bilishning asosidir, chunki boshqa predmetni har qanday bilishning mavjudligi o'zlikni anglashdadir. Men bilamanki, predmet meniki (u mening tasavvurim), shuning uchun uni bilganimda o'zimni anglayman». Gegel o'zini anglashni:

1) o'zi-o'zi uchun mavjud, «yolg'iz o'zini anglash» yoki o'z nafsiga berilgan o'zini anglash;

2) yolg'iz o'zini anglashning boshqa o'zini anglashga o'tishi yoki yakka va umumiyning birlashishi;

3) bir-biriga yaqinlashgan o'zini anglash, ya'ni «umumiy o'zini anglash» darajasiga o'tishiga ajratadi. Keyin u ushbu bosqichlarning falsafiy-psixologik mohiyati va mexanizmlari haqida fikr yuritadi.

O'zlikni anglash, vaziyatni idrok etish, yuzaga kelgan muammoga oqilona yondashish emas, kimningdir, goho «dohiy»larning da'vosi, shiori ommani harakatga keltiradi. Shuning uchun omma irratsionalga, hissiyotlarga to'la baqiriqqa, da'vatga bo'ysunadi. Bugungi kunda o'zlikni anglash ijtimoiy siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishni, bo'layotgan voqea-hodisalarni teran anglab yetishni bildiradi. O'zligini anglagan shaxs, ayniqsa, yoshlarimiz har qanday mafkuraviy xurujlarga berilmaydi.

Milliy o'zlikni anglash jarayonini o'rganishga demokratik yo'nalishdagi mamlakatlar va uning mafkurasini real imkoniyatlar yaratadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'zining mafkurasini shakllantirdiki, uning asosida milliy o'zlikni anglash uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Milliy o'zlikni anglash uchun uning strukturaviy komponentlari va diniy g'oyani bo'lishi yetarli emas buning uchun davlat mafkurasini bo'lishini taqozo etadi. Chunki mafkura g'oyalar tizimidan tashqari uning bosh g'oya va asosiy ijtimoiy maqsadini odamlar ongiga yetkazuvchisidir.

Yuqoridagi omillar ta'sirida milliy o'zlikni anglash fazilatlarini o'ziga singdirgan yosh avlod voyaga yetib, jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida o'z o'rnini



topadi. Har bir yosh avlod o'z kelib chiqishi tarixini, etnik ildizlarini hamda jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini idrok etgan inson shaxs sifatida faoliyat ko'rsata boshlaydi. Bunday inson dastavval o'zining jamiyatda tutgan o'rni va bajaradigan vazifalarini belgilab oladi.

O'ziga o'zi baho berish shaxsning o'ziga, o'z imkoniyatlariga, boshqa odamlar orasidagi fazilatlariga va o'rniga baho berishidir. O'ziga o'zi baho berish orqali shaxsning xulq-atvori to'g'rilanib, tartibga solib turiladi. Shaxsning o'ziga o'zi beradigan bahoning birmuncha oshirilib yuborilishi kutilgan baho ko'rsatkichlarining kamayishi bilan bog'liq bo'ladi. O'ziga o'zi baho berish shaxsning intilishlari darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Intilishlarning darajasi shaxs o'ziga o'zi beradigan bahoning individ o'z oldiga qo'yadigan maqsadlarning qiyinchiliklari darajasida namoyon bo'ladigan kutilgan darajasidir.

Yoshlarning, insonning ko'p qirrali va murakkab vazifalari ichida unga singdirilgan millatparvarlik, vatanparvarlik, mehr va murruvatlilik bilan bir vaqtda boshqa xalqlarning milliy madaniyatiga hurmat bilan qarash tuyg'usi ham faoliyat sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chesnakova I.I.. Problema samosoznaiya v psixologii. M.: 1977. -144 s.
2. Lapich K.G. Нацыянальная самасвядомасць і mentaliтэт беларусau. / K.G.Lapich/ / Адукацыйна і выкаваніе. -2000..-№3. -S.8-12.
3. Nitish Dubey, India: Harmany in Indian religionis. XXIII world congress of filosofhy, 2013.-R.176.
4. Islom: bag'rikenglik va mutaassiblik. -Toshkent -1998. 5. Po'latov X. Mustaqilligimiz qadriyatları. «O'zbekiston adabiëti va san'ati» gazetasi. -Toshkent, 1993.-B.2.



ИЗУЧЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА РАЗВИТИЯ МУЗЫКАЛЬНО-КУЛЬТУРНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ МУЗЫКАНТА-ИСПОЛНИТЕЛЯ

Л. ГАНИЕВА,

кандидат искусствоведения, профессор
института Национального
эстрадного искусства имени Б. Закирова при ГкУз

Проблема музыкально-культурного мировоззрения одна из основных в педагогической науке прошлого и настоящего. Она ведёт эволюционные этапы непрерывного образования. О роли музыки, музыкального образования и воспитания в жизни деятельности человека.

Данная статья изучает вопросы международного развития музыкально-культурного мировоззрения музыканта-исполнителя. Автор опирается на мировую и свой педагогический многолетний опыт.

Ключевые слова: музыкально-культурное, мировоззрения, музыка, опыт, международный, исполнитель, духовное, образование, культура, личность.

Musiqiy-madaniy dunyoqarash muammosi o'tmish va hozirgi davr pedagogikani asosiy muammolardan biridir. U uzluksiz ta'limning evolysiya bosqichlarini o'ziga qamrab oladi. Musiqa, musiqa ta'lim va tarbiyaning inson hayoti va faoliyatidagi o'rni haqida.

Ushbu maqola musiqachi-ijrochining musiqiy va madaniy dunyoqarashini, xalqaro rivojlantirish masalalarini o'rgandi. Muallif xalqaro va o'zining uzoq muddatli pedagogik tajribasiga tayanadi.

Kalit so'zlar: musiqiy-madaniy, dunyoqarash, musiqa, tajriba, xalqaro, ijrochi, ma'naviy, ta'lim, madaniyat, shaxs.

The problem of musical and cultural worldview is one of the key issues in pedagogical science, both in the past and present. It plays a leading role in the evolutionary stages of continuous education. This article explores the role of music, musical education, and upbringing in human life and activity.

The article examines the international development of the musical and cultural worldview of a musician-performer. The author draws on both global perspectives and personal long-term pedagogical experience.

Key words: musical and cultural worldview, music, experience, international, performer, spiritual, education, culture, personality.

Культура – совокупность достижений человечества в производственном, общественном и духовном отношении. При анализе культуры, той или иной эпохи, – отмечает учёный Шинкарук, – сказки, легенды, мифы, рассматриваются как феномен культуры [4.; 233]. Мировоззрение – система



человеческих представлений и знаний о мире, о месте человека в мире, выраженная в ценностных установках личности и социальной группы, в убеждениях относительно сущности природой и социальной действительности. Мировоззрение - система взглядов, оценок и образных представлений о мире и месте в нём человека, общее отношение человека к окружающей действительности и самому себе. Мировоззрение непосредственно взаимосвязано с духовными ценностями, идеалами, определённым багажом знаний, с принципами, убеждениями, мышлением человека [4.:34]

Мировоззрение есть духовное образование. Через неё мы воспитываем гармонично-развитое поколение. Как подчёркивал Президент Узбекистана Ш. Мирзиёев: «Сфера духовности должна опережать на десять шагов вперёд другие сферы, духовность должна превратиться в новую силу, в новое движение!» [1.;1]. Важное методологическое значение в развитии сферы имеет принятый Закон «О культурной деятельности и организациях культуры». У нас в республике создаются школы, продолжающие традиции уникальных образцов культурного наследия, таких как маком, катта ашула, искусство бахши, атлас и адрас. Исходя из этой идеологии, следует, что человек обретает индивидуальность по мере вхождения в мир культуры. Тем самым, в дошкольном возрасте начинают учиться исполнению на музыкальных инструментах. В таком возрасте мировоззрение оказывается важным качеством индивидуальности человека, ключевым в образе, жизни и мире культуры.

Высшая школа требует полной отдачи самосознания, интеллекта, профессионализма. Концертная деятельность исполнителя превращается в гастрологи, педагогическую компетенцию, профессионализм, опыт, мастерство. Здесь дуальность духовного и эмирико-практического уровня отражает диалектически противоречивую функциональную сущности мировоззрения, имеющиеся различия в способах функционирования индивидуального и общественного мировоззрения. Его синхронность со становлением конкретного человека и, соответственно, следы жизненного пути. Специфика воспитания, характерологические черты, определяют содержание и направленность процесса мировоззрения. Делается вывод о том, что сущность ценностно-мировоззренческой ориентации личности определяет целостность её антропо-социокультурных характеристик – в единстве гносеологического, онтологического, нормативно-регулятивного, функционального, позиционирующего признаков, где стержнем выступает многогранная палитра отношений чело-



века смирно, гармонизация рационального и эмоционально-чувственного начал в социокультурной сфере общественной жизни.

Исторический и международный опыт в области развития музыкально-культурного мировоззрения связан с рядом изучения литературы в данной области. В частности, материалы международных конференций, вебинаров, семинаров, посвящённых теме. О роли музыкального образования и воспитания написано немало трудов.

Следовательно, вызывает интерес кандидатская диссертация филологических наук Д.Костриковой «Музыкальная культура в формировании мировоззрения личности». Интересной работой в данной области является монография Т. Расуловой: «Мировоззрение и музыка». [4.; 1.] В работе рассматриваются проблемы реализма в музыке. Особенность механизма его проявления в музыкальном искусстве.

Исследуются коммуникативные аспекты музыки, анализируется субъект и объект музыкального отражения. В данной монографии исследователь пришла к гипотезе своего исторического и социо-культурного развития, музыкальное искусство выработало свой собственный язык со специфическими средствами выразительности, которые способны отразить все многообразие картин реальной действительности. Кроме того в процессе исследования проблемы мировоззрения композитора и его проявления в музыкальном (художественном) творчестве была сделана попытка анализа того, как соотносятся между собой музыкальный язык композитора и его мировоззренческие установки, а также рассмотрен вопрос понимания и осмысления музыкального произведения исполнителем, слушательской аудиторией и представителем профессиональной художественной критики.

Научная статья С.Полозова Музыкальное мышление как фактор формирования и развития музыкальной культуры: информационное основание. Статья посвящена обоснованию тезиса о том, что музыкальное мышление является фактором формирования и развития музыкальной культуры. Рассматривается содержание музыкального мышления с точки зрения информационного подхода. Результат исследования заключается в утверждении решающей созидательной роли музыкального мышления для развития музыкальной культуры. [5.;6].

Роль музыкального искусства в становлении мировоззрения личности рассматривается в трудах Э. Володина, Л. Выготского, М.Глотова, Л.Надировой. О музыке написано много работ В.Холоповой, М.Юдина; в которых через нотный текст воплощение смысла, мировоззрение человека, его идеалов.

Создание музыкально-образовательной среды и вовлечение личности



в художественно-творческую деятельность создаёт возможности для выявления и максимальной реализации его творческого потенциала. В результате изучения данной проблематики констатируется тот факт, что музыкально-культурная деятельность в её воспитательном процессе способствует потенциальному духовному росту.

Проблема мировоззрения одна из основных в педагогической науке прошлого и настоящего. О роли музыки, музыкального образования и воспитания в жизни деятельности человека также написано немало трудов.

Музыкальная поэтика Игоря Стравинского стиль и идеи Шёнберга, мир композитора Пауля Хиндемита. Три композитора несравнимы друг с другом. Но именно они имеют эстетическую направленность в мировоззрение личности. Новый поворот в эстетической концепции музыки, что является особой ролью интеллекта в творческом процессе. В данной научной статье исследуется художественное мирозерцание, в основе которого лежит представление, что именно композитор вносит своим разумом порядок в первозданный хаос. Идеи порядка и строгой организации становятся главными: строительство, изобретательство, конструирование формы. Интеллектуальное начало в произведениях данных композиторов становится главенствующим. Подобная концепция искусства рассчитана, естественно, и на особый тип восприятия, где на первый план выступает не эмоциональность воздействия, а интеллектуальная активность на слушателя.

Интересно, что многое в эстетике трёх композиторов неприемлемо для нашего искусства, а некоторые принципы, ими провозглашённые, пересматриваются и в современной зарубежной музыке. [3.; 237.]. Но все три композитора вошли в историю музыкальной культуры XX века. Шёнберг, выступивший как своего рода катализатор творческой мысли для ряда радикально мыслящих западных музыкантов, но потенциальная сила которого пока ещё выявилась больше в разрушении, чем в утверждении.

Весьма интересны лекции Стравинского, изложенные в работе Шахназаровой. Остановимся на них. Первая лекция – «Установление контакта» – цель и задачи курса. Вторая – посвящена музыкальному феномену, который композитор определяет как разновидность умозаключения в понятиях звука и времени. [3.; 238]. Элементы музыки, её синтаксис морфология рассматриваются в связи с феноменом музыки. Сам же анализ творческого процесса, его диалектика, понятия вдохновения, воображения, фантазии, вкуса, необходимости и свободы, порядка и беспорядка входят в содержание третьей лекции – «Музыкальная композиция». В четвёртой лекции «Музыкальная типология», речь идёт о проблеме стиля, критериях исторического отбора и жизни



музыкальных произведений. Стравинский даёт определение таким явлениям, как снобизм, обывательщина, модернизм и академизм, классицизм, романтизм. [3.; 245].

Так строит свои воззрения И.Стравинский: «Музыка, основанная на онтологическом времени, – пишет он, – подчиняется обычно принципу подобия. Та, что сопряжена с психологическим временем, предпочитает развиваться на контрастах. Этим двум принципам, управляющим творческим процессом, соответствуют важнейшие понятия разнообразия и многообразия» целенаправленную устремлённость к выявлению подобия единства И.Стравинский обосновывает эстетически: контраст даёт немедленный эффект. Подобие удовлетворяет нас лишь постепенно. Контраст является элементом многообразия, но он рассеивает внимание. Подобие рождается в стремлении к единству.[3.; 246].

Порядок в творчестве – отмечает И.Стравинский – и в самой композиции может быть достигнут только путём принуждения и строгой дисциплины. Исходя из этого, композитор позволяет себе забыть о необходимости добровольного ограничения свободы, о невозможности выхода за пределы поставленных себе границ. Функция творца заключается в том, чтобы просеять сквозь сито полученные им от воображения элементы, так как деятельность человека должна сама себе воздвигнуть границы.[3.; 248].

Таким образом, проанализированные нами исследования, труды следует изучать и анализировать, ибо они развешивают мировоззрение исполнителя музыканта, могут быть подспорьем для студентов, молодых педагогов.

Литература:

1. Ш.Мирзиёев Расширенное заседание республиканского совета по духовности и просветительству.22.12.2023.[https:// Lex.uz](https://Lex.uz).
2. Российский энциклопедический словарь. Мировоззрение и философия.
3. Н.Шахназарова Проблемы музыкальной эстетики в теоретических трудах Стравинского, Шёнберга, Хиндемита. «Советский композитор».1975.
4. Т.Расулова Музыка и мировоззрение Т.: "Фан". 1990.
5. С.Полозова Музыкальное мышление как фактор формирования и развития музыкальной культуры: информационное основание. //Вестник. 2010. С.70-75.



O‘SMIRLIK DAVRIDA MILLIY QIYOFA VA MILLIYLIK TUSHUNCHALARINING SHAKLLANTIRISHDA TA‘LIM TIZIMINING O‘RNI

A.G‘. TURG‘UNBOYEVA,

*psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
Namangan davlat pedagogika instituti*

Ushbu maqolada milliy qiyofa va milliylikni ko‘rib chiqish jarayoni, muammolari va yechimlarining izhtimoiy ko‘rinishi – ethnopsicholik zhikhatlariga to‘xtalib o‘tilgan. , o‘smirlar ongida ongida qiyofani va qiyofasi haqida talimning, umumiy o‘rta ta‘lim jarayonidagi faoliyatning milliy milliy o‘zgarishlari, tahlil qilishlari ham yori, o‘smirlik paytidagi milliy milliy muammolarni tahlil qilish.

Kalit sozlar: *milliy qadriyat, uzluksiz talim tizimi, o‘smirlik, o‘quvchilik davri, milliy o‘zlik va qiyofa, mentalitet, talim-tarbiya, maktab, oila, milliy content.*

В данной статье рассматриваются факторы формирования национального облика и национальной идентичности в процессе непрерывного образования, а также социально-этнопсихологические аспекты данной проблемы. Особое внимание уделено анализу эффективности деятельности общеобразовательных учреждений в формировании представлений об этнической идентичности и национальном облике у подростков. Также приведены теоретические подходы к пониманию данных понятий в подростковом возрасте.

Ключевые слова: *национальные ценности, система непрерывного образования, подростковый возраст, школьный период, национальная идентичность и облик, менталитет, обучение и воспитание, школа, семья, национальный контент.*

This article examines the factors influencing the formation of national identity and cultural appearance within the framework of continuous education, focusing on its socio-ethnopsychological aspects. It analyzes the effectiveness of educational institutions, particularly general secondary schools, in shaping adolescents' perceptions of national identity and cultural image. The paper also explores theoretical approaches to understanding these concepts during adolescence.

Key words: *national values, continuous education system, adolescence, school period, national identity and image, mentality, education and upbringing, school, family, national content.*

Globallashuv jarayoni inson hayotining barcha jabhalariga ta‘sir ko‘rsatir ekan, ayniqsa yosh avlod ongida milliylik, milliy qiyofa, o‘zligi va qadriyatini saqlab qolish masalasi bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlar ongiga milliy qiyofa, milliy g‘urur va milliy o‘zlik kabi tushunchalarni singdirish, ularni millatning asl farzandlari qilib tarbiyalash davr talabidir.



Jamiyat, davlat va inson manfaatlariga qaratilgan bu islohotlarning samarasi bevosita boshlang'ich va umumiy bilimlar beruvchi umumta'lim maktablarida ta'lim olayotgan kelajagimiz bunyodkorlari bo'lgan yoshlarning bilim darajasi, ma'navi-yati, tarbiyasiga bog'liqdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning: «Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz», degan fikrlari yosh avlod tarbiyasi davlat ahamiyatidagi masalalardan biri ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Milliy qiyofa – bu faqat insonning tashqi ko'rinish emas, balki uning dunyoqarashi, ta'lim-tarbiyasi, tafakkuri va ruhiyatida namoyon bo'ladigan milliylik obrazidir. Milliylik esa millatga xos bo'lgan ma'naviy, madaniy, axloqiy, tarixiy va lingvistik xususiyatlar majmuasi bo'lib, inson shaxsiyatida o'z ifodasini topadi. O'smirlarda bu tushunchalar shakllanishida oila, ta'lim muassasalari, ijtimoiy muhit va ommaviy axborot vositalari hal qiluvchi o'rin tutadi. Shuningdek o'zbek olimlaridan M.G.Davletshin, G'.B.Shoumarov, U.D. Qodirov, Z.T. Nishonova, V.Karimova, F.Akramova va boshqa psixologlarning ta'limda milliy tarbiyaga oid ilmiy qarashlari bu yo'nalishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Uzluksiz ta'lim jarayonida milliylikni shakllantirish imkoniyatlari bo'yicha bugun keng islohatlar amalga oshirilmoqda. Milliylikni shakllantirish ta'lim tizimida faqat darslik yoki tarixni o'qitish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon o'quv dasturlari, tarbiyaviy tadbirlar, o'qituvchi shaxsiyati va umumiy madaniy muhit orqali amalga oshiriladi. Ta'lim tizimining barcha bosqichida darsliklar va o'quv dasturlarda milliy qadriyatlar, milliy kontentga ayniqsa e'tibor kuchaymoqda.

Fanlar mazmuniga milliylikni singdirish, ayniksa maktabgacha ta'lim tizimida mashg'ulot jarayonida milliy ertaklar, milliy qo'g'irchoqlar, milliy liboslar va bayramlar xaqida tushuncha berib borish orqali milliy qadriyatlarini bolalikdan shakllantirib borishi muxim ahamiyat kasb etmoqda.

Umumta'lim tizimi o'quv jarayonida boshlang'ich ta'limda o'qish, ona tili, tasviriy san'at, musika, mexnat ta'limi darslarida, yuqori sinflarda adabiyot, ona tili, tarix, geografiya kabi fanlar orqali milliy qadriyatlarni chuqur talqin etib borish bugungi kun pedagoglarining o'ziga xos muhim vazifasidir.

